

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSC 03/04.06.2021 FIL.72.09 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMATOV AMONKELDI HASANOVICH

**BUXORODA ZAMONAVIY ADABIY MUHITNING TARIXIY
TARAQQIYOTI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук

Contents of abstract of the Doctor of Science dissertation

Axmatov Amonkeldi Hasanovich

Buxoroda zamonaviy adabiy muhitning tarixiy taraqqiyoti 3

Ахматов Амонкелди Хасанович

Историческое развитие современной литературной среды в Бухаре..... 37

Akhmatov Amonkeldi Hasanovich

The historical development of the modern literary environment in Bukhara 73

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 78

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSC 03/04.06.2021 FIL.72.09 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMATOV AMONKELDI HASANOVICH

**BUXORODA ZAMONAVIY ADABIY MUHITNING TARIXIY
TARAQQIYOTI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Fil824 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Murodov G'ayrat Nekovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Bekova Nazzora Jo'rayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Astanova Gulnora Aminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Nosirov Azimiddin Normamatovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021 Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «19» mart soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Buxoro shahri, M.Iqbol, 11. Tel.: (+365) 221-29-14; faks: (365) 221-26-12; e-mail: bsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol, 15-uy. Tel.: (+365) 221-29-14; faks:(365) 221-26-12.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 6.03 kuni tarqatildi.

(2025-yil "6" 03 dagi 16 raqamli reestr bayonnomasi).



Y.S.Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.R.Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

D.Z.Rajabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi jadallashib borayotgan sivilizatsion to‘qnashuvlar negizida rivoj topmoqda. Bugungi kunning yetakchi mamlakatlarida adabiy muhit va uning taraqqiyot tamoyillari alohida tadqiqot institutlari negizida o‘rganilmoqda. Jahonda “Adabiyot tarixining maqsadlari” singari to‘plamlarni nashr qilishdan maqsad adabiyot tarixining fan sifatida mavjudligiga tahdid solayotgan uslubiy qarashlarga qarshi javob izlashdan iborat. Zamonaviy adabiyotshunoslikda insoniyat tarixining murakkab va ziddiyatli davri hisoblanmish XX asr adabiy oqim va yo‘nalishlarni birlashtirgan adabiy jarayonlarni o‘rganish vazifasi izchillik bilan olib borilmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ko‘plab adabiy maktablar, jamiyatlar, to‘garaklar bo‘lib, davlatdan mustaqil ravishda o‘zaro raqobat asosida ish olib boradi. Yozuvchilarga turli yo‘llar bilan yordam bera oladigan ko‘plab adabiy tashkilotlar mavjud. Shoirlar va yozuvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir qator manbalarni taklif qiladi. Yozuvchilarni moliyalashtiradigan Readings & Workshops singari ko‘plab dasturlar yaratilgan. Bugungi kunda qator mamlakatlarda XX asr tarixining noma‘lum sahifalari o‘rganilishi bilan birga adabiy jarayonlar ham tadqiq qilinmoqda. Ushbu tadqiqotlar orasida o‘zbek adabiyoti tarixiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda o‘zbek adabiyotshunosligida zamonaviy adabiy jarayonlar tarixini xolis va haqqoniy o‘rganish muammosi sezilarli ortdi. Buxoroda ro‘y bergan zamonaviy adabiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot tamoyillari, rivojlanish yo‘nalishlari, janrlarning yangilanishi adabiyotshunoslar tomonidan yaxlit ilmiy ish sifatida o‘rganilmagan. “Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish ... katta ahamiyatga ega”¹. Bu borada adabiyotshunoslar tomonidan Buxoro zamonaviy adabiy muhiti tarixini chuqur o‘rganish hamda bunday tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2894-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘da “Adiblar xiyoboni”ni barpo etish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-sonli “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 13-iyundagi 451-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori hamda sohaga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat>.

tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amaldagi ijrosiga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi². Adabiy muhit taraqqiyoti tarixi, shakllanishi, janr xususiyatlari, poeziya va poetikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar dunyoning peshqadam ilmiy markazlari va ta'lim muassasalarida Yevropa davlatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida ko'plab adabiy tashkilotlar bo'lib, ular ijodkorning yozish ko'nikmasini shakllantiradi. G'arb mamlakatlari jumladan, AQSH shtatlarida 3 tadan 26 tagacha adabiy tashkilotlar mavjud. Adabiy tashkilotlar: Amerika Shoirlar akademiyasi, Yozuvchilar va yozish dasturlari uyushmasi (AWP), Badiiy adabiyot markazi, Adabiy jurnallar va nashriyotlar kengashi (CLMP), Aspirantura yozuv markazi, Milliy kitob jamg'armasi, Milliy san'at jamg'armasi (NEA), Milliy gumanitar fanlar jamg'armasi (NEH), Grubstreet (Boston, Massachusetts), Shoirlar uyi (Nyu-York shahri, Nyu-York), Yozuvchilar markazi (Bethesda, Merilend), Indiana yozuvchilar markazi, Loft (Minneapolis, Minnesota), Lighthouse Yozuvchilar ustaxonasi (Denver, Kolorado), Yozuv saloni (San-Fransisko, Kaliforniya)³ shular jumlasidan. Ushbu tashkilotlarda adabiy muhit va harakatchilik tarixi o'rganiladi. The Johns Hopkins University Press Amerikadagi eng yirik nashriyotlardan bo'lib, fanning turli sohaları qatori adabiyotshunoslikka oid ko'plab kitoblar nashr qiladi. Bu borada nashriyot ko'plab adabiy tashkilotlar, institutlar va olimlar bilan aloqalar o'rnatgan.

Xorijda yaratilgan Buxoro jadidchilik harakati masalasiga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlarda ham zamonaviy Buxoro adabiy muhiti tarixiga oid qator ma'lumotlar uchraydi. Bunda Edward Allworth, Khalid Adeeb, I.Baldauf, Komatsu Hisao, Timur Kocaoglu⁴ singari olimlarning izlanishlari diqqatga

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi <https://independentbookreview.com/2019/05/14/10-literary-organizations-with-writing-centers-classes-and-community.>; <https://today.williams.edu/magazine/the-literary-environment.>; <https://www.jstor.org/stable/468588.>; https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_literature; <https://www.jstor.org/stable/468588>; https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_literature#Bibliography va boshqa manbalar asosida tayyorlandi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi haqida batafsil tadqiqotning ikkinchi faslida yoritilgan.

³ Academy of American Poets, Association of Writers and Writing Programs (AWP), The Center for Fiction, Council of Literary Magazines and Presses (CLMP), Grad School Writing Center, National Book Foundation, National Endowment for the Arts (NEA), National Endowment for the Humanities (NEH), Grubstreet (Boston, MA), Poyets House (NYC, NY), The Writer's Center (Bethesda, MD), The Indiana Writers Center, The Loft (Minneapolis, MN), Lighthouse Writers Workshop (Denver, CO), The Writing Salon (San Francisco, CA).

⁴ Юсуфий Ф. Дидоре бо ахли калам. – Табрез: Махорат, 1374 х. – 126. саж.; Edward. Allworth. The Modern Uzbeks. From the Fourteenth Century to the present. A Cultural History. – California: Hoover Institution Press Stanford Universiti, 1990. – P.144.; Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley, Los Angeles, London: University of California Press, 1998.; Baldauf I. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams. 2000. № 1 (41). – P. 72-88.; Komatsu Hisao. Turkestan'da Yenilik Hareketleri ve ihtilaller 1900-1924. Osman Hoca Anisina Inselemeler // Hazirlayan Timur Koca og'lu. Haarlem-Ankara: Sota, 2001. – P. 299-313.; Timur Kocaoglu. Reform Movements and Revolutions in Turkistan: 1900-1924, Sota Haarlem, 2001.

sazovor. Xorijiy olimlar tadqiqotlarida XX asr buxorolik adiblar ijodiy faoliyatini o'rganish orqali taraqqiyparvarlik harakatining asl mohiyati u yoki bu darajada ochib berilgan.

Jahon adabiyotshunosligida bugungi kunda adabiy muhit va uning taraqqiyoti tarixi, o'rganilishi, adabiy aloqalar, uyushma va to'garaklar, adabiy tashkilotlar, adabiy kecha va seminarlar, janrlar xususiyati bo'yicha turli yo'nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, XX asr adabiy muhiti tarixi: adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixiga uslubiy yondashuv, bolalar adabiyoti, xalq o'zaki ijodi singari yo'nalishlar misol bo'la oladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Buxoro adabiy muhiti tarixi mavzusiga oid tadqiqotlarni xronologik jihatdan to'rt guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi guruhga XX asrning dastlabki choragida yozilgan asarlar va tazkiralari; ikkinchi guruhga – sovet hokimiyati yillarida nashr etilgan adabiyotlar; uchinchi guruhga – mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar, to'rtinchi guruhga – xorijda nashr etilgan kitoblar kiradi.

XX asr dastlabki choragida Buxoro amirligi hamda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida, Sovet hokimiyati yillarida asarlar yaratildi⁵.

Mustaqillik yillarida Buxoro zamonaviy adabiy muhitida taraqqiyot tamoyillarini o'rganish, ayniqsa, keng quloch yoydi⁶. Mustaqillik davrida yaratilgan tadqiqotlar oldingilaridan tubdan farq qilib, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda adiblar shaxsiyatiga yangicha munosabat masalasi shakllana boshladi. Ayniqsa, Buxorodagi adabiy muhit masalalari R.Vohidov, O.Safarov, G'.Murodov, D.O'rayeva, Sh.Ahmedova, D.Quvvatova, L.Sharipova⁷ asarlarida adabiy-tahliliy jihatdan yoritilgan.

So'nggi yillarda e'lon qilingan filologiya⁸, tarix, falsafa faniga⁹ oid bir qator dissertatsiyalarda Buxoro adabiy muhiti tarixining ayrim qirralari o'rganildi. Bu

⁵ Садриддин Айний. Намунаи адабиёти тожик – Душанбе.: Адиб, 2010. – 447 б.; Ҳожи Неъматуллоҳ Муҳтарам. Тазкират-уш-шуаро. –Душанбе.: Дониш, 1975. –399 б.; Саҳбо. Танланган шеърлар. Т.: Фан –1991. – 180 б.; Афзал маҳдуми Пирмастий. Афзал ут тазкор фи зикри шуаро. Чопи сангӣ, Тошканд, 1918. Саҳ. – 72.; Тазкаре Ашар. Шариф-жан Мақҳдум Садр Зиа, Ed., by М. Ж. Шақури Бокҳари. Soroush. Press. – Техран., 2001. – 446 б.; Садр Зиё. Наводири зиёия. –Т.: Баёз, 2017. – 184 б.; Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Тухфаи аҳли Бухоро. – Душанбе.: Адиб, 1992. – 269 с.; Қори Раҳматуллоҳ Возех. Тухфат-ул-аҳбоб фи тазкират-ил-асҳоб. – Бухоро.: “Бухоро”, 2001. – 64 б.; Айний С. Асарлар. 8 жилдлик. 1 – 8-жилдлар. – Т.: Ўздавнашр, 1963–1967; Шарафидинов О. Истеъдод жилолари. Адабий портретлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1976. –232 б.

⁶ Ғулом Шомурод. Меҳр меҳвари: Шеърлар, дostonлар, хотиралар. – Т.: Шарқ, 2014. – 256 б.; Жалилов С. Бухорийлар қиссаси: (Муҳожират тарихидан лавҳалар). – Т.: Тошкент ислом университети, 2006. – 284 б.; Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. – Т.: ЎзРФА Қўлёмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1999. – Б.460; Ражабов Қ, Иноятов С. Бухоро тарихи. –Т.: Тафаккур, 2016. – 460.; Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар). – Т.: Абу матбуот-консалт, 2012. – 176 б.; Тошпўлат Аҳмад. Лабиҳовузда ой балқийди. – Бухоро.: Бухоро, 2018. – 192 б.

⁷ Воҳидов Р, Маҳмудов М. Устод Садриддин Айний сабоқлари. – Т.: Фан, 2004. – 320 б.; Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Дурдона, 2015. – 584 б.; Муродов Ғ. Шоир калби наволари. – Бухоро: Дурдона, 2016. – 160 б.; Дилдан номи ўчмас устознинг (Профессор Саиджон Алиев замондошлари хотирасида). Мас.муҳаррир Аҳмедова Ш. – Т.: Muharrir, 2011. – Бухоро: Бухоро, 1995. – 37 б.; Ўраева Д. Охунжон Сафаров ижодий портрет. – Т.: Муҳаррир, 2010. – 128 б. Quvvatova D. Sadriddin Ayniy va o'zbek nasri taraqqiyoti // VuxDU ilmiy axboroti, 2018. № 2. – В.151-154.; Шарипова Л. Мен ватан деб йўлга тушдим... – Бухоро: Адабий Бухоро, 2024. – 140 б.

⁸ Сайидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси: Филол.фан.док... дисс. (DSc)... – Т., 2018. – 284 б.; Тожибоева М. Жадид адiblари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари: Филол.фан.док... дисс.автореф (DSc)... – Т., 2018. – 71 б.; Зойирова Г.Н. Самандар Воҳидов шеърляти поэтикаси. Филология фанлари бўйича

borada muayyan ilmiy izlanishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bugungi kunga qadar Buxoro zamonaviy adabiy muhiti tarixiga oid monografik tadqiqotlar yetarli emas.

Mustaqillik yillarida tojikistonlik tarixchi olimlardan N.Gafarov, N.Xotamov, M.Bakiyev, K.Rasulov¹⁰; adabiyotshunoslardan Sohib Tabarov, Muhammadjon Shakuriy¹¹ tomonidan yozilgan kitoblarda Buxorodagi adabiy muhit tarixi, Buxoro adiblarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Sohib Tabarov "Мунзим – Жизнь и творчество видного деятеля движения джадидов", "Мунзим – Руководитель общества джадидов и председатель партии младобухарцев"¹² singari tadqiqotlarida Munzim misolida Buxoro adabiy muhiti tadqiq etilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarning aksar qismi O'zbekiston tarixini yoki undagi ma'lum bir davrni, muayyan bir ijodkor faoliyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, Buxoroda zamonaviy adabiy muhit tarixi adabiyotshunoslar tomonidan to'la tadqiq etilmaganligini ko'rsatadi. Mavzuga oid ishlar tahlili ko'rsatadiki, o'zbek adabiyoti tarixida Buxoroda zamonaviy adabiy muhitni alohida tadqiqot mavzusi sifatida ishlash zarurati mavjud. Dissertatsiyaning birinchi bob ikkinchi faslida muammoning manbashunosligi va tarixshunosligi keng ochib berilganligi bois ushbu o'rinda mavzuning o'rganilishi tarixi muxtasar qilindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "O'zbek adabiyotining dolzarb muammolari" (2018-2024 yy.) yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. XX asr o'zbek adabiyoti kontekstida Buxoroda zamonaviy adabiy muhitning taraqqiyot tamoyillarini o'rganish, ushbu adabiy muhitning o'ziga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib berish hamda ijodkorlarning adabiy-badiiy faoliyatini ma'rifiy-estetik muhit bilan bog'lab o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Buxoroda yangicha adabiy muhitning shakllanish jarayonini tahlil qilish;

Buxoro zamonaviy adabiy muhiti tarixining o'rganilishini tadqiq qilish;

фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2022.; Назарова Д. Жамол Камол шеърини поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2021.

⁹ Санаев И. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошларида Зарафшон водийси адабий муҳити: Тарих фанлари номзоди. дис... автореф... – Т., 2001.; Раджабова С. Мирзо Сирожиддин Ҳаким Бухорий ижодида маърифатпарварлик фалсафаси муаммолари: Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс.автореф.... – Т., 1996.; Ғойибова Ш. Абдурауф Фитратнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари: Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс.. автореф.... – Т.,1996.

¹⁰ Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате. – Хужанд, 2000.; Хотамов Н.Бухарские джадиды и основные этапы их деятельности. – Душанбе, 2000.; Бакиев М. История просветительского движения и свободомыслия в Средней Азии, конец XIX – начало XX века: Дисс. док. ист. наук. – Душанбе, 2000.; Расулов К. История культуры таджикского народа в первой четверти XX века: Дисс. док. ист. наук. – Душанбе, 2010.

¹¹ Табаров С. С.Айни – кофиясолори адабиёти советии тоҷик. – Душанбе, 1977.; Шу муаллиф: Мунзим. – Душанбе: Ирфон, 1991.; Муҳаммаджон Шақурий. Нигоҳе ба адабиёти тоҷики садаи бист. – Душанбе: Душанбе, 2006. – 456 с.; Муҳаммаджон Шақурий. Садри Бухоро. – Душанбе.: Деваштич, 2005. – Саҳ. 11-202.

¹² Табаров С. Мунзим – Жизнь и творчество видного деятеля движения джадидов. – Душанбе: Ирфон. 1991.

dastlabki adabiy tashkilot va maktablar, to‘garaklar holatini, yoshlar bilan ishlash masalasini ochib berish hamda Yozuvchilar uyushmasi bo‘limining tashkil qilinishi va faoliyati haqida ma’lumot berish;

she’riyat va nasrning mavzu doirasi, mazmun ko‘lamining kengayishini dalillash hamda dramaturgiya takomilini, mavzu va mazmun darajasini, dramaturglar ijodini yoritish;

adabiy muhitning etnik tarkibi, ijtimoiy va til xususiyatlarini tavsiflash;

Buxoro adabiy muhitida ayol ijodkorlar ko‘lami, ularning zamonaviy adabiy muhitdagi o‘rni va adabiy-madaniy jarayonlardagi faoliyatini va adabiy aloqalar va tashriflar tarixini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida adabiy muhit vakillarining asarlari, qo‘lyozma va toshbosma bayozlar, tazkiralalar, arxiv materiallari, vaqtli matbuotdagi ma’lumotlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmetini Buxoroda zamonaviy adabiy muhitning taraqqiyot tamoyillariga oid masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-xronologik, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, diaxron, tavsifiy, biografik, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Buxoroda zamonaviy adabiy muhit yuzaga kelishining tarixiy omillari, saroy adabiy muhiti bilan ma’rifatparvarlik harakati, jadid adabiyoti, proletar adabiyot, sotsialistik realizm adabiyoti o‘rtasidagi tafovut va o‘xshashliklar, yutuq va kamchiliklar manbalar, shu jumladan, Sadr Ziyo, Afzal Pirmastiy, Sadridin Ayniy, Qori Rahmatulla Vozev singarilarning tazkiralari, O‘zbekiston milliy arxivida saqlanayotgan O‘zbekiston Sovet Yozuvchilar uyushmasi (R-2356-fond), O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi boshqaruvi (R-2364-fond), O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi xalqaro aloqalar boshqarmasi (M-7-fond), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi (M-123-fond), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi (M-126-fond) fondlari asosida aniqlangan, hamda tahlil qilingan;

nafaqat Buxoro adabiy muhitida, balki o‘zbek adabiyoti tarixida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan adabiy to‘garaklar soni, faoliyati, qamrovi, samaradorligi haqida ma’lumotlar jamlangan, Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limining tashkil qilinish tarixi va keyingi faoliyati, barcha rahbarlarining amalga oshirgan ishlari natijasi, maslahat markazi, adabiy maslahatchilarning ijodiy jarayonlardagi o‘rni, uyushmaga a’zo bo‘lish va chetlashtirilish masalalari batafsil yoritilgan, mustaqillik yillarida uyushmaning tarkibiy tuzulmasidagi o‘zgarishlar, reja va dasturlar, tashkil qilinganidan bugunga qadar bo‘lgan davrdagi moliyaviy masalalar yaxlitlanib, bir dissertatsiya doirasida tadqiq etildi;

Buxorodagi zamonaviy adabiy jarayonlarda ishtirok etgan ijodkorlarning etnik tarkibi xilma-xil bo‘lganligi, jumladan, yahudiy millatiga mansub Xayim Yusupovich Kaykov she’rlari, kichik poemalari, ocherklari, Buxoro yahudiylari yozuvchilar shu’basining raisi, adib Aron Yefremovich Shalomayevning pyesalari, rus tilida qalam tebratgan shoir slavyan millatiga mansub Timofey Dmitriyevich Novichkov hayoti va ijodi ilk marotaba o‘rganilib ilmiy muomalaga kiritilgan,

shuningdek, turli tillarda, jumladan fors, tojik, yahudiy, rus tilida yozadigan qalamkashlar faoliyati ilk marotaba yaxlit holda o'rganildi;

Rustam Abdurahmonov, T.Fayziy, Chig'atoy, Tesha Mirfayziyev, Payrav Sulaymoniy, Sulton Jo'rayev, Yakov Gordon, Ne'mat Aminov, Dilmurod Jabbor, Abdunabi Hamroyevlarning Buxoro zamonaviy adabiy muhitidagi ijodiy faoliyati o'rganilgan, shu singari o'z davri adabiy muhiti va matbuotida faol bo'lib, kitoblari bosilgan bo'lishiga qaramasdan hamon keng jamoatchilikka noma'lumligicha qolayotgan adiblar hayoti va ijodi ilk marotaba tahlil doirasiga tortildi;

adabiy muhitga kirib kelgan yangi janrlar she'riyat, nasr va dramaturgiyadagi o'zgarishlar yutuq va kamchiliklar, asarlarning mavzu va mazmun doirasi, mafkuraning adabiyotga ta'siri tahlil qilingan, Ra'no Uzoqova, Oydin, Gulchehra Sulaymonova, Gulchehra Jo'rayeva, Maryam Turdiyevalarning Buxoro adabiy muhiti bilan bog'liq faoliyatlari jamlanib, Ibodat Rajabova, Laylo Sharipova, Mohigul Nazarova singari shoiralarning ijodi ilk bora monografik tadqiqot doirasida o'rganildi;

so'nggi yillarda adabiy jarayonda ro'y berayotgan o'zgarishlar, Harakatlar strategiyasi va besh tashabbus doirasida amalga oshirilayotgan ko'rik tanlovlar, grandlar, simpozium va konferensiyalar, ijtimoiy-madaniy tadbirlarda adiblar faolligi haqidagi ma'lumotlar ishning ilmiy konsepsiyasi asosida ko'rib chiqildi va muayyan ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Buxoroda zamonaviy adabiy muhitning taraqqiyotidagi asosiy omillar tizimli tarzda o'rganilib, zamonaviy adabiy muhit namoyandalari ijodining shakllanish asoslari, o'rganilish tarixi va ularning o'zbek adabiyotshunosligi tarixida tutgan o'rni dalillangan;

O'zbek adabiyoti tarixida yuzaga kelgan adabiy maktablar, to'garaklar va Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo'limining tashkil qilinishi va faoliyati, yoshlar bilan ishlash masalasi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinib, bizga qadar nomlari to'la o'rganilmagan qalamkashlar haqidagi ma'lumotlar to'plangan;

O'zbek adabiyoti tarixida she'riyat va nasrning mavzu doirasi, mazmuni ko'lamining kengayishi o'rganilib, dramaturgiyaning holati tahlil qilingan;

Buxoroda adabiy muhitning etnik tarkibi, ijtimoiy va til xususiyatlari o'rganilib, baynalmillik qoidalariga to'la rioya qilinayotgani ochib berilgan;

Buxoro adabiy muhitida ayol ijodkorlar ko'lami (ayol obrazi) tadqiq qilinib, ularning keng jamoatchilik bilan muloqot doirasining kengayib borishi, adibalar sonining tobora ortishi xronologik tartibda o'rganilgan;

Adabiy aloqalar va tashriflar tarixi o'rganilib, viloyatlar va respublikalararo aloqalarning taraqqiyot xususiyatlari, mavzu va mazmun doirasi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ma'lumotlarni to'plash va tahlil etishda arxiv materiallari, vaqtli matbuotda chop qilingan ilmiy-adabiy va tarixiy yo'nalishdagi maqolalar, xotira va esdaliklarga tayanilganligi, xulosalar va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* o‘zbek adabiyoti tarixini yanada boyitishga, dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy g‘oyalar va umumlashma xulosalar zamonaviy o‘zbek adabiyoti tarixi, O‘zbekiston tarixi ixtisosligida olib boriladigan tadqiqotlar hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati*, tadqiqot natijalaridan o‘zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik, O‘zbekiston tarixi, fan va texnologiyalar tarixi fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodini yozishda, ma‘ruzalar o‘qishda, amaliy va seminar mashg‘ulotlari, maxsus kurslar o‘tishda hamda O‘zbekistonning XX asr adabiy muhiti tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buxoroda zamonaviy adabiy muhitning tarixiy taraqqiyoti tadqiqi natijalari asosida:

Tadqiqot loyihasi asosida tayyorlangan ishda Buxoro zamonaviy adabiy muhitining yuzaga kelishi shart-sharoitlari, adiblar faoliyati, to‘garaklar, adabiy maktablar va Yozuvchilar uyushmasi faoliyati va uning adabiy muhitdagi ahamiyati dalillangan. Adabiy muhit vakillarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, inson qadri va psixologik holati, adabiy muhitdagi nazm va nasrning o‘rni, siyosiy mafkuraga xizmat qilishi, adiblarning etnik tarkibi, turli millat vakillari o‘rtasidagi ijodiy aloqalar, til xususiyatlari, zullisonaynlik an‘anasiga rus va turk tilining qo‘shilishi haqidagi ma‘lumotlari natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universitetida bajarilgan 2017–2020-yillarga mo‘ljallangan OT-F1-030. “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini (7-jild) chop etish” nomli davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universitetining 2024-yil 30-maydagi 04/1–1388-son ma‘lumotnomasi). Dissertatsiya materiallari mazkur ko‘p jildli monografiyaning yettinchi jildida zamonaviy adabiy muhit tarixi masalalarini atroflicha yoritishga xizmat qilgan.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limining tashkil qilinishi, faoliyati, rahbarlari, xodimlari, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni, iqtisodiy holati, adiblarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq voqeliklariga oid materiallaridan bo‘lim pasportini, jumladan, “Adabiy Buxoro: kecha va bugun” qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanildi. Tadqiqot loyihasi asosida tayyorlangan ishda Buxoro zamonaviy adabiy muhitining yuzaga kelishi shart-sharoitlari, adiblar faoliyati, to‘garaklar, adabiy maktablar va Yozuvchilar uyushmasi faoliyati va uning adabiy harakatchilikdagi ahamiyati o‘rganilganligi g‘oyatda muhim. Ishda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limining sovet yillarida, mustaqillikning dastlabki yillarida va bugungi kundagi holati arxiv materiallari asosida o‘rganilgan bo‘lib, ushbu ma‘lumotlardan bo‘limning buxorolik qalamkashlar ijodiy faoliyatini o‘rganish va targ‘ib etishga bag‘ishlangan tadbirlar jarayonida keng foydalanildi (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limining 2024-yil 22-iyul sanasidagi 17-sonli ma‘lumotnomasi). Tadqiqot materiallari uyushma tarixini yozishda va “Adabiy Buxoro: kecha va bugun” qo‘llanmasini tayyorlash xizmat qildi.

“Buxoroda zamonaviy adabiy muhitining tarixiy taraqqiyoti” mavzusidagi ish materiallaridan “Buxoro” telekanalining “Buxoro –Sharq gavhari”, “Moziy bisotidan”, “Assalom, Buxoro” ko‘rsatuvlarida tadqiqotchi bilan bevosita suhbat olib borish orqali unumli foydalanildi. Buxoroda adabiy muhit vakillari ijodini o‘rganishdan maqsad Yangi O‘zbekiston rivojida ularning o‘rnini aniqlash, adiblarning ibratli hayot faoliyati bilan bugungi kun yoshlarini tanishtirish, ularning bizga qoldirgan adabiy merosi orqali davrning ijtimoiy ahvoli, inson qadri, adiblarning etnik tarkibi, turli millat vakillari o‘rtasidagi ijodiy aloqalar haqidagi ma’lumotlarning natijalaridan foydalanildi (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi 2024-yil 8-iyul № 01-09-104-sonli ma’lumotnoma). Natijalar ko‘rsatuvlar mazmun-mohiyatini boyitishda va ularning ommabopligini ta’minlashga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 35 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Shundan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 11 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya Kirish, to‘rt bob, Xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 241 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning O‘zbekiston fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy tadqiqot usullari ko‘rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning “**XX asr Buxoro adabiy muhiti va uning o‘rganilishi**” deb nomlangan birinchi bobida adabiy muhitning taraqqiyot tamoyillari, bosqichlari, zamon siyosiy tuzumlariga moslasha borishi, adabiy muhitni adabiyotshunoslar va tarixchilar shuningdek, xorij olimlari tomonidan o‘rganilishi tadqiq qilingan.

Birinchi bobning “Buxoroda yangicha adabiy muhitning shakllanish jarayoni” deb nomlangan birinchi faslida muammoning nazariy asoslari haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda adabiy muhit tarixi hududiy jihatdan ta’riflanib kelinmoqda. Jumladan, Qo‘qon, Xorazm, Buxoro, Toshkent adabiy muhiti singari. Zamonaviy adabiy muhitning yuzaga kelishi bir qator o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan. Adiblar qarashlaridagi xilma-xillik tufayli adabiy muhit bir qancha oqimlarga bo‘lingan. Adabiy harakatchilik davr mohiyatiga ko‘ra ikki xil:

Hukmron tabaqani madh etib, saroy hayotini ulug‘lab turuvchi adabiy muhit va ijtimoiy yo‘nalishda qalam tebratuvchi, jamiyatdagi illatlarni fosh qiluvchi ijodi bilan el orasida tanilgan ma‘rifatparvarlar guruhiga ajratiladi.

Saroy adabiy muhitida ko‘plab ijodkorlar konservativ g‘oyalardan chiqa olmagan. XX asrning dastlabki o‘n yilligi to‘laligicha “Ojiz” taxallusida ijod qilgan amir Abdulahadxon nomi bilan chambarchas bog‘langan edi. Hukmdorlik faoliyatidagi vazifalarni bajarishdagi ayrim xato va kamchiliklari tufayli uning adabiyot sohasidagi tashabbuskorligi ham uzoq yillar xolis baholanmadi.

Saroy adiblari orasida zamonaviy fikrlovchilarni ma‘qullovchilar ham topilgani bois ularni shartli ravishda ikki toifaga ajratish mumkin. Ikkinchi toifa vakillari saroy kishisi bo‘lsa-da, jadidlarga hammaslak, g‘oya va qarashlarida islohotlarga moyillik sezilardi (Ahmad Donish, Sadr Ziyo, Shamsiddin Shohin, Mirzo Sahbo, Mirzo Somiy va boshqalar).

Matbuotning kirib kelishi xalqni davrning ijtimoiy-siyosiy zamona islohotlaridan voqif qilib, mahalliy ziyolilarning ongi va dunyoqarashini kengayishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

1917–1918-yillardagi qatag‘onlardan keyin jadid adabiyoti namoyandalari bo‘lmish Buxoro adabiy muhiti vakillari Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Abdurauf Fitrat, Ahmadjon Hamdiy, Mirbobo Muhsinzoda, Mirzo Akkos, Avhadi Buxoriylar adabiy-badiiy, siyosiy qarashlari bilan faol harakatda bo‘lganlar. Qarama-qarshiliklar girdobida qolgan adabiy muhit vakillari safida qator o‘zgarishlar yuz bergan. Rus bosqini arafasida, asosan, matbuot atrofida birlashgan Buxoro adabiy muhiti vakillari BXSР tuzilgach, adabiy-ijodiy faoliyat bilan birga siyosiy hayotda ham faol ishtirok etishadi. Adabiy muhit vakillariga qarshi repressiya XX asr 20-yillari o‘rtalaridayoq boshlangan. 1923-yil 22–23-iyunda Yosh buxorolik jadidlar asossiz ayblar bilan hukumat tarkibidan chiqariladi¹³.

Jadidchilik g‘oyalari va ularning mualliflari sovetlar siyosati uchun ma‘qul emasdi. Keyinchalik ularning asarlari “g‘oyaviy badiiy jihatdan yuqori saviyada yozilgan emas”; “badiiy nuqsonlari bor”; “ayrim g‘oyaviy nuqsonlar uchraydi”; “davrning yuksak talablaridan hamon orqada qolib kelmoqda”; “hayot bilan chinakam yaqinlikka kirisholmagan”¹⁴ tarzidagi ayblovlar bilan nashr ettirilmagan. Shu bois XX asr 30-yillarida ziyolilar muntazam qatag‘on qilinib, jadid adabiyoti vakillari jisman yo‘q qilinadi. XX asr 40-yillariga kelib adabiy muhit vakillari kommunistik mafkura iskanjasida qoladi. 1956-yil fevralda KPSS XX syezdidan keyin bir qator Buxoro adiblari ham oqlangan¹⁵. Biroq o‘zbek sovet adabiyoti negizida Buxoro adabiy muhiti milliylikni yo‘qotmadi. Aksincha, Buxoroda zamonaviy adabiy muhit qaror topdi.

Ko‘pgina iste’dodlaridan ayrilgan Buxoro adabiy muhiti yangi ijodkorlarni tarbiyaladi. 1920-yillar oxirida adabiyot maydoniga kirib kelgan Sulton Jo‘rayev, Qurbon Badaliy, Muhammadjon Muxtorov, Sharif Nurxonov, Hamid Baqoyev, Tesha Mirfayziyev, T.Chig‘atoy, Rustam Abdurahmonov, S.Fayziy singari adiblar

¹³ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. – Т.: О‘zbekiston, 2019. – Б. 160.

¹⁴ О‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 2-ro‘uxat, 459-ish, 14-varaq.

¹⁵ О‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘uxat, 1086-ish.

XX asr 30-yillariga kelib yetuk ijodkor, mohir jurnalist bo‘lib, adabiy jarayonlarga yangicha ruh va kuch bag‘ishladilar.

Ikkinchi jahon urushi tufayli adabiy jarayonlar jangovor mazmun va shaklga kirdi. Adiblar ham frontda (Sulton Jo‘rayev, Baqo Saidov, Rustam Abdurahmonov, Juma Qodirov, Qurbon Badaliy) va front ortida g‘alabaga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Vatanparvarlik, ozodlik, dushmanga nafrat tuyg‘ulari adabiyotning asosiy mazmunini tashkil etdi va uning janr xususiyatlari badiiy vositalarini belgilab berdi. Nasrda kichik janrlar, ya‘ni qisqa hikoyalar, she‘rlar, feletonlar, jurnalistik maqolalar ustunlik qilgan¹⁶.

XX asr 40-yillarida Y.Muqimiyning “Baxtlar qonuni”, “Qirq yettinchi yil”, T.Mirfayziyevning “Umumxalq nomzodi”, N.Shavkatiyning “Lenin tirik”¹⁷, Z.Kamolovning “Shoirlik havosi”¹⁸ shuningdek, T.Hamidov, G.Sulaymonova, O.Tog‘ayev, Sh.Orifiy, M.Muxtorov, Sh.Nurxonov she‘rlarida yangi yilga rejalar, paxtadagi yutuqlar, o‘tgan g‘alaba, urushdan keyingi qayta tiklanish, partiyani ulug‘lash, baxtli hayotni kuylash, xalq xo‘jaligi, dala qahramonalari haqida yozganlar.

XX asr 60-yillari adabiyoti to‘laligicha O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi ta‘siri va nazorati ostida bo‘ldi. Maxsus dastur va rejalar bo‘yicha ish olib borildi¹⁹.

1984-yil 23-aprelda Buxoroga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi birinchi kotibi Sarvar Azimov rahbarligidagi Turob To‘la, Said Ahmad, Mirmuhsin, Pirmqul Qodirov, Abdulla Oripov, Sa‘dulla Karomatov, Laziz Qayumov singari taniqli shoir, yozuvchi, adabiyotshunos va tanqidchilar tashrif buyurgan²⁰.

O‘zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgach, Yozuvchilar uyushmasi tuzilmasida ham qator o‘zgarishlar bo‘ladi²¹. Toshpo‘lat Ahmad yetakchiligida ko‘plab qalamkashlar yangidan tashkil qilingan uyushma a‘zoliciga ariza topshiradilar²². Mustaqillik ijodkorlar faoliyatida yangi davrni boshlab berdi. Mustaqillikka erishgach adabiy muhit tarixini o‘rganishga keng imkoniyatlar ochildi.

Dissertatsiya birinchi bobi ikkinchi fasli “Adabiyotshunoslikda Buxoro adabiy harakatchiligining o‘rganilishi” deb nomlanadi. Bunda O‘zbekiston hududida adabiy muhit vakillarining hayoti va ijodi, ular yashagan davrdagi siyosiy jarayonlar, adabiy g‘oya va qarashlarning mohiyatini ochib berishda manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan tadqiqot mavzusining manbaviy asosini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: Arxiv hujjatlari va materiallari. 2.Nashr qilingan hujjat va materiallar to‘plamlari. 3.Davriy matbuot materiallari. 4.Davlat arboblarning nutqlari. 5.Xotira va esdaliklar. 6.Og‘zaki tarix materiallari.

¹⁶ Ахматов А. Жангчи шоир Султон Жўра // Иккинчи жаҳон уруши: халқ жасорати ва тарих сабоқлари. Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари (2020 йил 27 май). – Қарши., 2020. – Б. 202.

¹⁷ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 2-ro‘yxat, 479-ish, 1, 51-56, 88, 98, 99-varaqlar.

¹⁸ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 691-ish, 46-varaq.

¹⁹ Buxoro viloyat davlat arxivi 1079-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 40-varaq.

²⁰ “Buxoro haqiqati” gazetasi, 1984-yil 24-aprel, 79-son.

²¹ O‘zbekiston milliy arxivi, M-123-fond, 1-ro‘yxat, 3-yig‘ma jild, 63-varaq.

²² O‘zbekiston milliy arxivi, M-123-fond, 1-ro‘yxat, 4^a-yig‘ma jild, 7-varaq.

Tadqiqot ishida O‘zbekiston milliy arxivi (O‘MA)da saqlanayotgan O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlar Soveti (R-837-fond), O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (86-fond), O‘zbekiston SSR Markaziy Qo‘mitasi huzuridagi adabiyot va nashriyot bosh boshqarmasi (R-1722-fond), O‘zbekiston Sovet Yozuvchilar uyushmasi (R- 2356-fond), O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi boshqaruvi (R-2364-fond), O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi xalqaro aloqalar boshqarmasi (M-7-fond), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi (M-123-fond), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi (M-126 fond), Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davriga tegishli bo‘lgan BXSRS Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (47-fond), BXSRS Xalq Nozirlar Sho‘rosi (48-fond) da saqlanayotgan hujjatlardan foydalanildi. Buxoro viloyat davlat arxivida saqlanayotgan O‘zbekiston SSR Ministrlar soveti Buxoro iqtisodiy-ma‘muriy rayon xalq xo‘jaligi (1168-fond), Buxoro viloyat xalq ijodiy uyi (1198-fond), O‘zbekiston SSR adabiyot va nashriyot ishlarining bosh boshqarmasi (512-fond), O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi Buxoro bo‘limi (1179-fond), Sergo Orjonikedze nomidagi Buxoro davlat pedagogika instituti (fond 532-C), Buxoro viloyat davlat arxivida saqlanayotgan shaxsiy fondlar: Abul Bozorov shaxsiy ishlari (1079-fond), yozuvchi Ne‘mat Aminov (1233-fond), Muzaffar Tursunov (shaxsiy fondi; 1110-fond), Abdulla Mo‘min (1238-fond), Abdulmajid Fozilov (1239-fond), Muhammad Ashrapov (1157-fond), Baqo Saidov (21-fond), Qurbon Badaliy (1281-fond), Buxoro davlat me‘moriy-badiiy muzey-qo‘riqxonasi qo‘lyozma fondi (1681-inventar Sadr Ziyo “Tazkirai Ash‘or”)da saqlanayotgan hujjatlarning ko‘pchiligi ilk bora adabiyotshunoslik uchun ilmiy muomalaga olib kirildi.

“O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlar Soveti” deb nomlangan R-837-fondga hukumatning qarorlari va ularning ijrosi bilan bog‘liq hujjatlarda adiblar faoliyati, adabiy muhit va adabiy jarayonlar bilan bog‘liq materiallar berilgan²³.

O‘zbekiston milliy arxivining O‘zbekiston Sovet Yozuvchilar uyushmasi deb nomlangan R-2356-fondga Markaziy Osiyo va O‘zbekiston SSRda adabiy jarayonlarning borishi, adabiy tashkilotlar, jamiyati adabiy yig‘ilishlar, shuningdek, uchrashuvlar, sayyor qabullar, Yozuvchilar uyushmasining tashkil qilinishiga oid hujjatlar o‘rin olgan²⁴.

O‘zbekiston milliy arxivining O‘zbekiston SSR Markaziy Qo‘mitasi huzuridagi adabiyot va nashriyot bosh boshqarmasi R-1722-fondga O‘zbekistondagi adabiyot va nashriyot ishlarining borishi, maorif masalalari, maxfiy topshiriqlar va senzura chorlovchi buyruqlar ro‘yxati ilk bora ommaga e‘lon qilingan²⁵.

Buxoro viloyat davlat arxivida saqlanayotgan shaxsiy fondlarda esa ayrim yozuvchi va shoirlarning shaxsiy hujjatlari, ijod namunalari, qo‘lyozmalari, radio va matbuotga berilgan axborotlarning matnlari, adiblarning shaxsiy yutuq va mukofotlari, hujjatlarning foto nusxalariga oid materiallar jamlangan²⁶.

²³ O‘zbekiston milliy arxivi, R-837-fond, 32-ro‘yxat, 1350-yig‘ma jild.

²⁴ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1,2-ro‘yxatlar, 360,405, 717- va boshqa yig‘ma jildlar.

²⁵ O‘zbekiston milliy arxivi, R-1722-fond, 1-ro‘yxat, 23,30,42-yig‘ma jildlar.

²⁶ Buxoro viloyat davlat arxivi, 1198-fond, 1-ro‘yxat, 2-yig‘ma jild; Buxoro viloyat davlat arxivi, 1079-fond, 1-ro‘yxat, 12-yig‘ma jild.

Davrning bir qator davriy nashrlari “Buxoroyi sharif”, “Turon”, “Tong”, “Buxoro axbori”, “Ozod Buxoro”, “Buxoro proletari”, “Buxoro haqiqati”, “Qizil O‘zbekiston”, “Lenin yo‘li”, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” kabi gazetalarda²⁷; “Maorif va o‘qitg‘uvchi”, “Alanga”, “Sharq yulduzi”, “Yoshlik”, “Buxoro mavjlari”²⁸ kabi jurnallarda adabiy muhit tarixiga oid materiallar keltirilgan.

Manbalarning yana bir guruhini voqealarning jonli guvohi bo‘lgan yoki tarixiy jarayonlarda bevosita ishtirok etgan davlat va siyosat arboblari, ziyolilar tomonidan yozib qoldirilgan asarlar, xotiralar va esdaliklar tashkil etadi²⁹. Mazkur asarlarning aksariyati e‘lon qilingan materiallar hisoblanadi. Ularda adabiy muhit tarixining turli tomonlari, noma‘lum sahifalari bayon qilingan.

Buxoroda yashab faoliyat yuritgan adiblarning hayoti va ijodi qisman o‘rganilgan. Bu yo‘nalishda muayyan bir adiblar haqida ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bunda tarixshunos³⁰ va adabiyotshunoslar³¹ izlanishlarini alohida-alohida keltirish mumkin.

²⁷ Бухоройи шариф: Фитрат. “Фарёд” // 1912 йил 29 июн №94; Айний. “Масти” №17; Мунзим. “Ватан” №53; Мирзо Сирож Ҳақим. “Озодалик” 1912 йил март. №13; Бухоро ахбори: Бой-Су “Ҳар кўнгилда бир фикр”. 105 сон, 1922 йил 26 октябрь; Абу Ваража “Навбатдаги вазифалар”. 114 сон, 1922 йил 3 декабр; “Кераклар халтаси”. 117 сон, 1922 йил 14 декабр. Озод Бухоро: Абу Ваража “Одам”. 2 сон 1923 йил 19 октябрь; Искарб Топар. “Гаранг Махсумдан сўранглар” 151 сон, 1924 йил 14 октябрь.; “Buxoro proletari” gazetasi: Adabiyotda qosimovchilik va adabiyot kadrlari masalasi // 1930-yil 19-oktabr, 15-son; Yoshlar ijodiga diqqat qilaylik // 1939-yil 4-noyabr, 254-son; Havaskorlar to‘garagi olimpiadasi // 1939-yil 29-dekabr, 298-son; Pushkin Kechasi // 1944-yil 13-fevral, 31-son.; “Buxoro haqiqati” gazetasi: Maktabda adabiy kеча // 1955 йил 2 ноябр, 218 сон; 153 сон; Бухоро инкилоби куйчиси // 1980 йил 20 ноябр, 225 сон.; “Қизил Ўзбекистон” gazetasi: Ўзбек адабиёти ва чиғатойчилик // 1929 йил 13 май, 110 сон; Inqilobiy shoirlar // 1930-yil 15-oktabr, 242-son.; Proletar adabiyotning ijodiy metodi masalalarida hovliqishlar bo‘lmasin//Lenin yo‘li. 1931-yil 26-noyabr, 226-son.; Каримов Н. Ўзбекистонда адабий ҳаракатлар//Ўзбекистон адабиёти ва санъати gazetasi, 1995.01.20.

²⁸ “Alanga” jurnali: Tursunqul. Maksim Gorkiy va proletar adabiyot // 1928-yil. 3-4-son.; Botu. Nafis adabiyot sohasida o‘z-o‘zini tanqid // 1928-yil iyul-avgust. 6-7-son.; Ramz. Go‘zal adabiyot ham yozuvchilarning roli // 1928-yil iyul-avgust. 10-11-son.; Шарқ юлдузи журнали: Жўра Фозил. Ёднома // 2010 йил 1 сон; “Yoshlik” jurnali: Ғайбулла Салом “Тилак, Тилагим...”; Чоршам “Шеърлар” (4-10); Шавкат Омонов “Ўтган кунларинг ҳеч зое кетмайди” 1996 йил 1,6 сонлар.; “Buxoro mavjlari” jurnalining barcha sonlarida Buxoro adabiy muhiti vakillarining ijodidan namunalar berilgan.

²⁹ Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Т.: Фан, 1991. – 32 б.; Садриддин Айний. Эсдаликлар. Асарлар. 8 жилдлик. 5-7-жилдлар. – Т.: ЎзССР давлат Бадий адабиёт нашриёти, 1963-1967.; Муҳаммад Али Балжувоний. “Тарихи Нофеий” –Т.: Академия, 2001. –122 б.; Саййид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги. – Бухоро: “Бухоро”, 2004. – 128 б.; Саййид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. Таҳқиқоти Арки Бухоро. (Ғ. Каримов таржимаси). – Т.: Тафаккур, 2009. –108 б.; Садр Зиё. Наводири зиёия. – Т.: Баёз, 2017. – 184 б.; Мирзо Сирожиддин Ҳақим. Тухфаи аҳли Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1992. – 269 с.; Мунавварқори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). – Т.: Шарқ, 2001. – 128 б.; Фитрат А. Танланган асарлар 5 жилд. – Т.: Маънавият, 2000–2010.; Саид Аҳмад. Ўқотганларим ва топганларим. Хотиралар. Адабий ўйлар. – Т.: Шарқ, 1998.; Саидносирова З. Ойбеги менинг. – Т.: Шарқ, 1994. – 56 б.; Тошпўлат Аҳмад. Излаганим сенсан, она – Бухоро!”. – Бухоро.: “Бухоро” нашриёти, 2007 – 140 б.; Сафаров О. Устозлар ва сафдошлар. – Т.: Muharrir, 2012. – 196 б.

³⁰ Бобожонова Ф.Х. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири – XX аср бошларида). Тарих фанлари номзоди. дис. – Тошкент, 2001.; Темиров Ф. Садриддин Айнийнинг Бухородаги жадидчилик ҳаракатида тутган ўрни ва ижтимоий фаолияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020.; Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019.; Янгибоева Д. Шарифжон Садр Зиёнинг Бухоро илмий, маданий муҳитида тутган ўрни ва ижтимоий фаолияти (1865-1932 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021.

Milliy adabiyotshunoslikning keyingi davrlarida, xususan, O.Sharafidinov, S.Aliyev, T.Qorayev, Qurbon Badaliy, A.Fozilov, Abul Bozorovlarning³² asarlarida Buxoro adabiy muhitining u yoki bu davri turli aspektda o'rganildi.

Nisbatan keyingi davrda Buxoro adabiy muhiti tarixini o'rganishda O.Safarov, R.Vohidov, N.Karimov, P.Qayyumov, S.Inoyatov, Q.Rajabov, G'.Murodov, A.Niyozmurodov, I.Haqqulov, T.Ahmedov, Sh.Hayitov, Sh.Xaitov, Sh.Ahmedova, H.Eshonqulov, N.Bekova, M.Rajabova, D.O'rayeva, D.Quvvatova, Z.Amonova, K.Rahmonov, M.Tojiboyeva, Sh.Doniyorova, L.Sharipova ishlari³³ muhim o'rin tutadi.

Yevropalik tarixchi Anke fon Kyugelgen Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlangan "Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв)"³⁴, F.Wennbergning "On the Edge. The concept of Progress in Bukhara during the Rule of the Later Manghits" asarlarida adabiy muhit tarixi qisman o'rganilgan. Eronda nashr etilgan "Namunai adabiyoti Eron" to'plamida buxorolik ko'plab adiblar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan³⁵.

Dissertatsiyaning "**Buxoroda adabiy maktab, to'garak, uyushmalar faoliyati**" nomli ikkinchi bobida adabiy tashkilotlar haqida ma'lumotlar beriladi. Buxoroda XX asr boshida norasmiy adabiy maktab, to'garaklar faoliyat olib

³¹ Зойирова Г.Н. Самандар Воҳидов шеърятти поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2022.; Назарова Д. Жамол Камол шеърятти поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2021.; Акрамова С. Жамол Камол шеъряттида тожикча-ўзбекча лексемаларнинг лектик-семантик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2023.; Махмудова М. Садриддин Салим Бухорийнинг аслиятдан таржималарида адекватлик ва ижодийлик. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2022.; Ризаев Б. Неъмат Аминов ижодида ижтимоий ва адабий-ҳажвий типларнинг бадиий талқини. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2020.

³² Қораев Т. Танланган асарлар. – Т.: "Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси", 2008. – 312 б.; Алиев С. Бухорода битилган байтлар: (Адабий мақолалар ва хотиралар). – Т.: Гафур Гулом, 1992. – 128 б.; Шарафидинов О. Истеъдод жилolari. Адабий портретлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1976. – 232 б.; Курбон Бадалий. Синфдош, сафдош эди. «Бухоро мавжлари», 2006, 3-сон, 11-бет.; Фозилов А. Бехатни биласизми? / Ленин йўли газетаси. 1973, 29 октябр.; Buxoro viloyat davlat arxivi, 1079-fond Abul Bozorov shaxsiy fond materiallari.

³³ Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Дурдона, 2015. – 584 б.; Воҳидов Р, Махмудов М. Устод Садриддин Айний сабоқлари. – Т.: Фан, 2004. – 320 б.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б.125.; Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. – Т.: ЎзРФА Қўлёзмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1999. – 460 б.; Муродов Ф, Саидова М. Ҳайрат ва самимият куйчиси. – Бухоро: Бухоро, 2016. – 64 б.; Ниёзмуродов А. Бухоро ҳаётининг кўзгуси. – Бухоро: "Бухоро", 2009. – 160 б.; Ражабов Қ, Иноятлов С. Бухоро тарихи. – Т.: Тафаккур, 2016. – 460.; Тошпўлат Аҳмад. Лабиҳовузда ой балқийди. Бухоро.: Бухоро, 2018. – 192 б.; Ҳаққулов И. Эътикод ва ижод. – Т.: Фан. 2007. – 262 б., Ҳайитов Ш. Адабий манбалар билан ишлаш амалиёти. Дарслик. Бухоро: «Фан ва таълим», 2022.; Дилдан номи ўчмас устознинг (Профессор Саиджон Алиев замондошлари хотирасида). Мас.муҳаррир Аҳмедова Ш. – Т.: Muharrir, 2011.; Эшонқулов Ҳ. Фитрат Навоий услуби ҳақида. Аллома адабиётшунос. – Т.: Фан, 2006. – Б.36-38.; Bekova N. Ayniy "Devoni Foni" haqida / Filologiya masalalari (7-ilmiy to'plam), – Т.: Fan, 2013. – В.44-47.; Ўраева Д. Охунжон Сафаров ижодий портрет. – Т.: Муҳаррир, 2010. – 128 б.; Қувватова Д. Янги ўзбек адабиёти. Ўқув қўлланма. Бухоро: Дурдона, 2021.; Амонова З. Умумтаълим мактабларида Абдурауф Фитрат ижодининг ўрганилиши. Услубий қўлланма. Бухоро. Дурдона.2019.; Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920–1924 йиллар). – Т.: Абу матбуот-консалт, 2012. – 176 б.; Дониёрова Ш. Омон Мухтор ижодида янги талқинлар. – Т.: Турон замин зиё, 2017. – 112 б.; Шарипова Л. Мен ватан деб йўлга тушдим... . – Бухоро: Адабий Бухоро, 2024. –140 б.

³⁴ Анке фон Кюгелген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв). Алматы: Дайк пресс, 2004. – С.384-385.

³⁵ taaghche.com/book/112047/يات-ذمونه-ايد-ران-ادب .

borgan. Jumladan, Sadr Ziyoning xonadonida tashkillashtirilgan adabiy kechalarni biz ilk adabiy to‘garaklar deyishimiz mumkin.

Abdurauf Fitrat katta maqsadlar istab “Chig‘atoy gurungi” (1918-yil noyabr, 1921-yil yanvar) adabiy-madaniy tashkilotini tuzdi³⁶. U Markaziy Osiyoning madaniyati, adabiyoti, san’ati, tili, imlosi, tarixi va boshqa sohalarini batafsil o‘rganishga kirishgan tashkilot sifatida faoliyat yuritgan. O‘z vakolat doirasidan ko‘ra samaraliroq faoliyat yuritgan bu tashkilotni ilk norasmiy yozuvchilar uyushmasi deyish mumkin. Amalga oshirgan adabiy-madaniy tadbirlarning hukmron qatlam siyosatiga mos kelmasligi 1921-yil boshlarida guruh faoliyatiga chek qo‘yilishiga olib keldi.

“Chig‘atoy gurungi” adabiy to‘garagi o‘zbek adabiyoti uchun til, uslub, shakl masalalarida ijobiy yangiliklar olib kirdi. Mazmun borasidagi qarashlarda esa milliylik sezilib turardi. “Chig‘atoy gurungi” faoliyati mazmun borasida uzoqqa ketmadi: millat, vatan so‘zlarining o‘rniga ulus, yurt so‘zlari ishlatildi va “ey sevikli millat, yasha, bor bo‘l” o‘rniga “turk eli, ey buyuk el, ko‘zing och”³⁷ misralari yozildi. Shu bois to‘garak a‘zolari hamisha ta‘qibda bo‘ldi. Bu jarayon 30-yillarda qatag‘onlar bilan birga to‘la qaror topdi, desak haqiqatga yaqin bo‘ladi. Ushbu qatag‘onlar “Chig‘atoy gurungi” adabiyoti vakillarining deyarli barchasini yakson qildi³⁸.

XX asr 20-yillarida chin ma‘nodagi proletar adabiyoti vujudga kelmadi. Proletar mafkurasi bilan sug‘orilgan asarlar ancha bo‘lsa-da, bular qat‘iy bir shaklga kelgan emas edi. XX asr 30-yillarining boshlariga kelib, sovet ittifoqi, respublika va hatto viloyat miqyosidagi proletar yozuvchilari uyushmalarining adabiy harakatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani kundek ravshan bo‘ldi.

“Buxoroda Yozuvchilar uyushmasi bo‘limining tashkil qilinishi va taraqqiyoti” nomli ikkinchi faslida Yozuvchilar uyushmasi haqida ma‘lumotlar beriladi. O‘zbekiston hududida XX asrga qadar alohida tashkil qilingan adabiy tashkilot bo‘lmagan. Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan tuzilgan “Chig‘atoy gurungi” bu yo‘ldagi birinchi tashkilot edi. So‘ngra adiblar “Qizil qalam” (1926-1930) jamiyati, “O‘zbekiston proletar Yozuvchilar uyushmasi” (1930-1932) ko‘rinishidagi tashkilotlarda ishtirok qilishgan.

Maksim Gorkiy tashkilotchiligida SSSR Yozuvchilar uyushmasining tuzulishi bilan sovet hukumati adiblarni yagona tizim ostida saqlab turadigan formulani yaratdi. Shuningdek, ushbu tashkilotning respublikalarda ham bo‘limlari tashkil qilina boshlandi. 1934-yil 7-11-mart sanalarida Toshkentda O‘zbekiston yozuvchilarining birinchi qurultoyi o‘tkazilib, adabiyotshunos Rahmat Majidiy raisligida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, so‘ngra birin-ketinlik bilan viloyatlarda ham Yozuvchilar uyushmasi bo‘limi tashkil etiladi³⁹. Ijodkorlarni

³⁶ Бу ҳақида қаранг: Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, марифат, фидойилик. –Т.: Маънавият, 2002. – Б.356.; Болтабоев Ҳ. Фитрат ва Жадидчилик. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. –Б.40,42.; Каримов Н. Ўзбекистонда адабий ҳаракатлар // ЎзАС. 1995.

³⁷ “Alanga” jurnali / 1928-yil noyabr, 10-11-son. – B. 3.

³⁸ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 2-ro‘yxat, 450-ish, 122-varaq.

³⁹ Akhmatov A.H The Establishment of The Bukhara Regional Branch of The Writers’ Union Of Uzbekistan (Based On Archival Materials) www. <http://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH>.

qo'llab-quvvatlash maqsadida 1934-yilda Andijonda Karim Ahadiy, Samarqandda A.Mansurov, Buxoroda Muhammadjon Muxtorov kotibligida uyushma bo'limlari tashkil qilingan. O'zbekiston yozuvchilarining I syezdi (1934-yil mart) va II syezdi (1939-yil aprelda) oralig'ida asosan, tashkiliy ishlar amalga oshirilgan⁴⁰. Buxoro maorif binosida joylashgan Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo'limi 1937-yildan e'tiboran Eski Buxoro shahridagi Registon ko'chasi "Buxoro proletari" redaksiyasi joylashgan binoga ko'chadi⁴¹.

O'zbekiston SSR yozuvchilar uyushmasiga a'zolik SSSR Yozuvchilar uyushmasiga rasmiy ariza yozish orqali amalga oshirilgan. Arizaga yozuvchilar uyushmasining uch nafar a'zosining tavsiyanomasi ilova qilinishi kerak bo'lgan.

1971-yildan e'tiboran esa saylash va a'zolik masalalari respublikalar huzuridagi bo'lim kotibiyatiga topshirilgan. Yashirin ovoz berish yo'li bilan qabul qilinganlar SSSR Yozuvchilar uyushmasining yagona a'zolik bileti bilan taqdirlangan.

Adiblar "yozuvchilik sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazgan huquqbuzarliklar hamda Yozuvchilar uyushmasi nizomida belgilangan tamoyil va vazifalardan chetga chiqqani uchun a'zolik biletidan mahrum qilinishi mumkin bo'lgan. Yozuvchilar uyushmasi a'zolidan mahrum qilinganlar, avvalo, "Adabiyot jamg'armasi"dan chiqarilgan, so'ngra uyushma tasarrufidagi nashrlarda kitob chop etish, gazeta, jurnallarda maqolasini nashr ettirishdan, ba'zi hollarda ish joyidan mahrum bo'lishgan. Shunday qilib, ular amalda adabiy faoliyat orqali pul topish imkoniyatidan mahrum bo'lib, sezilarli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan.

Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limida yil boshidan yangi yilning reja va dasturlari ishlab chiqilib, Markaziy uyushma tomonidan tasdiqlanar, respublika uyushmasidan turli ko'rsatma va topshiriqlar olib turilar edi. O'zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo'limi moliyaviy tomondan mahalliy byudjet hisobidan ta'minlangan⁴².

Urushdan keyingi uzilishlarning oldini olish uchun O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1955-yil 21-yanvardagi 100-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Sovet Yozuvchilar uyushmasining ma'muriy boshqaruv apparati tarkibi va shtat birligi qayta shakllantirildi. Qarorga binoan bir qator viloyatlarda Yozuvchilar uyushmasining bo'limlarini qayta tashkil qilishga kirishildi⁴³.

1955-yil 16-apreldagi O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 293-sonli farmoyishi bilan 1955-yil 1-oktabrda Buxoroda O'zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo'limi qayta tashkil etildi. 1955-yil 10-noyabrda bo'lib o'tgan birinchi yig'ilishda T.Hamidov, Y.I.Gordon, A.Abdullayev, M.Baqoyev, G'.Navro'zov, A.Mo'minov, V.Turov, Sh.Orifiy, G.Gulshin, shuningdek, havaskor yozuvchi, shoir, publitsistlar: Ch.Fayzullayev, T.Ishboyev, S.Karimov, F.Ravirov, G'.Shomurodov, M.Karimov, A.Amonov, N.Ubaydov, T.Ashurov, H.Qahhorov, X.Sodiqova, M.Shodiyeva, M.Kazakov, Ch.Bikliyev va A.Niyozmurodovlar

⁴⁰ O'zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro'yxat, 786-ish, 13-varaq.

⁴¹ O'zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro'yxat, 786-ish, 6-varaq.

⁴² O'zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro'yxat, 786-ish, 11-12-varaqlar.

⁴³ O'zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro'yxat, 369-ish, 2-varaq.

ishtirok qilishadi⁴⁴. Toshpo‘lat Hamidov O‘zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limi kotibi lavozimiga tayinlangan. Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo‘limining tashkil qilinishi, tashkilotchi rahbarning kelishi, bir qator yosh ijodkorlarni unga a‘zo bo‘lib kirishi Buxoro adabiy muhiti tarixida yangi sahifa ochdi.

O‘zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo‘limining tahririyat bo‘limi ham mavjud bo‘lib, unga V.Kim hamda M.Baqoyev mas‘ul qilib tayinlangan. Adabiy janrlar bo‘yicha: 1.O‘zbek adabiyoti bo‘limiga – A.Abdullayev. 2.Rus adabiyoti bo‘limiga – Yakov Gordon. 3.Adabiyotshunoslik va tanqid bo‘limi rahbarligiga – A.Mo‘minov mas‘ul qilib tasdiqlangan⁴⁵.

1955-yil oktabr oyidan faoliyatini boshlagan bo‘lim yosh yozuvchi va shoirlar bilan ishlash davomida bir qator iqtisodiy qiyinchiliklarga ham duch kelgan⁴⁶.

Kuzatishlar ko‘rsatadiki, smeta bo‘yicha ofis xarajatlari uchun taqdim etilgan mablag‘lar bo‘lim hisob raqamiga o‘tkazilmagan. Shuningdek, adabiyotlarni sotib olish uchun berilishi va‘da qilingan bir yarim ming rubl ajratilmay qoladi⁴⁷. 1956-yil 8-iyuldagi hujjatlardan ma‘lum bo‘ladiki, bo‘lim tashkiliy ishlarda samarali mehnat qilishga intilsa-da, qator muammolar hal qilinmay qolgan. Sakkiz oy davomida faoliyat ko‘rsatib kelgan uyushmaga ish stoli ham ajratilmagan.

O‘zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limi xodimlarining shtat birligi va maoshi quyidagicha bo‘lgan: Kotib oyiga 1700 so‘m, yiliga 20400; sekretar-mashinistka oyiga 410 so‘m, yiliga 4920 so‘m; farrosh oyiga 250 so‘m, yiliga 3000 so‘m olgan.

Aytish mumkinki, 1994-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida 12 ta hududiy bo‘lim, 750 a‘zo bo‘lgan. Shu jumladan, Buxoro bo‘limida ham yigirmaga yaqin uyushma a‘zosi ijod qilib keldi. Mustaqillikning keyingi yillarida uyushmaga a‘zo bo‘lgan buxorolik ijodkorlarning soni tobora ortib bordi.

Mustaqillikka erishgach uyushmaning moliyaviy masalasi izchil yo‘lga qo‘yilgan. Maoshlar va mukofotlar muttasil oshirib borilmoqda⁴⁸.

Mustaqillikning dastlabki yillari adabiy muhiti yaqin tarixiga nazar tashlar ekanmiz Yozuvchilar uyushmasi tarkibida turli kelishmovchiliklar, ayrim boshboshdoqliklar, bo‘linishlar yuzaga kelganini ko‘ramiz. Mustaqillikning keyingi yillarida ham qator muammolar hal qilinmay qolmoqda edi⁴⁹.

Shu va shu kabi yig‘ilib qolgan turli darajadagi muammolarni hal qilish va Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yaxshilash masalasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev adiblar bilan uchrashdi va ularning fikr-mulohazalari tingladi. 2018-yil 5-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3652-sonli Farmoni⁵⁰,

⁴⁴ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 405-ish, 82-varaq.

⁴⁵ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 405-ish, 83-varaq.

⁴⁶ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 405-ish, 84-varaq.

⁴⁷ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 405-ish, 79-varaq.

⁴⁸ O‘zbekiston milliy arxivi, M-123 fond, 1-ro‘yxat, 11⁶-ish, 50-varaq.; 5-ish, 1-varaq.

⁴⁹ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 1522-yig‘ma jild, 1-8-varaqlar.; 1519-yig‘ma jild, 4-varaq.

⁵⁰ <https://lex.uz/docs/-4873069>.

shu asosdagi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 13-iyunda imzolangan 451-son Qarori⁵¹ asosida uyushmaning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi va moliyaviy ta‘minlandi. Bu esa adabiy jarayonlarning samarali faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Bugungi kunga qadar Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limiga quyidagi adiblar kotiblik qilishgan: Toshpo‘lat Hamidov (1955-1970); Jamol Kamolov (1970-1973); vaqtincha bo‘shliq (1973-75); Toshpo‘lat Ahmedov (1975-1993, 1996-2016); Vali Bobomurodov (1993-1996); Shodmon Sulaymonov (2016-yildan). Bo‘limning ayni vaqtdagi rahbari, “Shuhrat” medali sohibi Shodmon Sulaymonov 2015-yil 16-oktabrdan bu vazifada faoliyat yuritib kelmoqda. U “Buxoro mavjlari” jurnalida faoliyatini yuritish bilan birga adabiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylangan edi. Uning tashabbusi bilan samarali faoliyat yuritilayotgan uyushmada ayni zamonda 23 ta a‘zolik biletini olgan ijodkor bor.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi uchinchi faslida “Adabiy-badiiy havaskorlik to‘garaklari va yoshlar bilan ishlash” masalalari haqida ma‘lumot berilgan. Adabiy to‘garaklar tashkil qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib: “Birinci navbatda, korxonalarda va yirik kolxozlarda adabiy to‘garaklarni tezda jonlantirish uchun tashkilot tajribali yozuvchilarni oddiy xalqqa biriktirib qo‘yishni amalga oshirsin”⁵², – deya qaror qilingan edi bo‘lim yig‘ilishida. Zavod va fabrikalar qoshida ishchilar uchun adabiy to‘garaklar tashkil etilib, “ijodiy kuchlar”dan proletar yozuvchilarni yetishtirishga kirishadilar.

O‘zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limining qarorida “Yoshlar bilan ishlash, ularni tarbiyalash ishini juda jiddiy ravishda kuchaytirish, ayniqsa, ularning yozib turgan asarlariga e‘tibor bilan qarab, konsultatsiyani kuchaytirish”⁵³ zarurligi qayd qilingan. Kolxozlar, fabrikalar va zavodlarda adabiy kechalarni tashkil etish masalasi alohida ko‘rilib, bu vazifa A.Mo‘minov zimmasiga yuklangan⁵⁴.

O‘zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo‘limi huzurida tuzilgan konsultatsiya byurosi orqali 100 dan ortiq yosh yozuvchilarning ijodiy namunalariga maslahatlar beriladi. Eng yaxshi lirik asarlar tanlanib shahar, tuman gazetalarida nashr ettirilgan. Bir yil davomida 70 dan ortiq she‘r, ocherk, hikoya bosilgan⁵⁵.

Kitobxonlar konkursi, yosh ijodkorlar konferensiyalari tashkillashtirilib turilgan. O‘zbek adabiyoti kafedrasida huzurida “Yosh ijodkorlar” adabiy to‘garagi faoliyat yuritgan⁵⁶.

Buxoro viloyatida Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo‘limi hamda “Buxoro haqiqati” gazetasi tashabbusi va tashkilotchiligida “Nilufar”, Shofirkon tumanida

⁵¹ <https://lex.uz/ru/docs/-3783426>.

⁵² O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 18-varaq.

⁵³ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 18-varaq.

⁵⁴ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 405-ish, 83-varaq.

⁵⁵ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 786-ish, 15-varaq.

⁵⁶ Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона, 2015. –Б. 293.

“Mingchinor”, Sverdlov (Jondor) tumanida “Binafsha”, Buxoro tumanida “Shalola”, Romitan tumanida “Bahra”, Kogon tumanida “Chashma”, Olot va Qorako‘l tumanlarida birlashgan holdagi “G‘uncha” kabi adabiy to‘garaklari mavjud bo‘lgan.

“Buxoro haqiqati” gazetasi huzurida joylashgan yosh ijodkorlarning “Nilufar” adabiy to‘garagi oyda bir marta yig‘ilib turadigan Buxoroning turli hududlaridagi badiiy ijodga havasmand qalamkashlarni atrofida uyushtirgan.

Ahad Hasan “Shofirkon haqiqati” gazetasi negizida “Mingchinor” adabiy to‘garagini tashkil etib, o‘nlab, yuzlab iqtidorli yosh ijodkorlarga murabbiylik qilgan⁵⁷.

To‘garaklar masalasiga bugungi kunda alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbek adabiyoti tarixida hech qachon bugungichalik adabiy to‘garaklar bo‘lmagandi, deb aytish mumkin. Boisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi Farmoni ijorosi sifatida nafaqat hududlarda, balki har bir maktabda 1-yanvardan targ‘ibotchi adabiy maslahatchi lavozimi joriy qilinib, badiiy to‘garaklar tashkil qilindi. Ularning vazifasi 5 tashabbus doirasida yosh kitobxonlarni tayyorlashdan iborat.

“Buxoro adabiy muhitida nasr, nazm, dramaturgiya” deb nomlangan uchinchi bobning birinchi fasli “She‘riyatning mavzu doirasi va mazmuni” deb nomlanadi. XX asrga kelib she‘riyatning shakl va mazmunida bir qator o‘zgarishlar bo‘ldi. Shuningdek, bu davrda mumtoz adabiyot an‘analariga sodiqlik adabiy shakllarda ham, badiiy tasvir uslubida ham saqlandi. Ma‘rifatparvar adiblar ijodida o‘tmish adabiyotning janrlari saqlanib qolishi bilan birga, yangicha badiiy shakllar ham namoyon bo‘ldi. Bu davr she‘riyatida hamon g‘azal yetakchi edi.

Abdurauf Fitratning ijodida xalq, vatan taqdiridan kuyunib qalam surish hissi yuqori bo‘lgan. Uning fors tilida yozilgan she‘rlar majmuasi “Sayha” (“Na‘ra”)ga to‘qqiz g‘azal, ikki tarkibband va bir necha qit‘a kiritilgan. Sadriddin Ayniy “Namunai adabiyoti tojik” asarini tuzganda, mana shu to‘plamdan bir necha she‘rlarni keltirib, Abdurauf Fitratni XX asr fors-tojik she‘riyatining asoschisi sifatida ko‘rsatadi⁵⁸. Uning she‘rlari ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalari bilan sug‘orilganligi, ilm-ma‘rifatni targ‘ib qilishi, hayot haqiqatlarini oshkora aytishi, taqqoslash va tanqidiy ruh yuqoriligi, madaniy qadriyatlarga hurmati bilan Mirzo Siroj she‘rlariga yaqin turadi.

Buxoroda zamonaviy adabiy muhitni o‘rganar ekanmiz, ko‘plab adiblar Buxorodagi siyosiy voqealarga umid bilan qaraganlarini ko‘rishimiz mumkin. Ayrim jadid ijodkorlari dastlab Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga xayrixohlik bilan qarashgan. Jumladan, Abdurauf Fitratning:

Ofkori girifta sarosar sahobi surx,
Go‘yo zamona basta ba garden tanobi surx.
Dunyo ko‘hnai mutaassib zip ofitod,
To shud zi ufqi g‘arb baland oftobi surx.

⁵⁷ Мангу ёнган чироклар. Аҳад Ҳасан ва Илҳом Ҳасан сиймосига чизгилар. Тадқиқотлар, хотира ва ёдномалар. – Т.: Наврӯз, 2019. –Б. 130.

⁵⁸ Садриддин Айний. Намунаи адабиёти тоҷик. – Москва, 1926. –Саҳ. 534-545.

Bu mazmundagi she'rlarni Ahmadjon Hamdiy, Avhadi Buxoriy, Sadridin Ayniy ijodida ham kuzatish mumkin. Rossiyadagi oktabr inqilobini ham, Buxoroda amir tuzumining ag'darilishini ham ijobiy qabul qilgan adiblarning noroziliklari biroz keyingi yillarda, ya'ni hukumatning tobora milliylikdan yiroqlab, sovetlashib borayotganini ko'rgach yuzaga kelgan.

Manbalarda Sadridin Ayniyning birinchi she'ri sifatida "Guli surx" (1895) nomli g'azali ko'rsatilgan⁵⁹. Uning 1920-yilga qadar jami turli janrdagi 27 ta she'r yozgani ma'lum bo'ldi. Bulardan "Shabi do'shina, ki dar go'shai sahnam jo bud", "Behujra-vu beko'ya-mu bejoma-vu dastor", "Dahyak", "Bazm" singari g'azal va qasidalari, "Dostoni sayri Shirbudun", "Har kas, ki nazarbaland boshad", "Vazid as bo'ston bodi bahoron", "Hasan zad", "Qissai parvona va kirmak", "Bomdodi bahoron", "Sahargohon" she'rlari va oltita ruboiysi bizga ma'lum⁶⁰.

Cho'lpon she'riyatidagi kuyunchaklik, samimiylik, soddalik, vatanparvarlik g'oyalari adabiy muhitni bezadi. Adib Buxoroda "Indamaysan", "O'rinsiz fotiha" kabi ikki hikoyasini yozgan⁶¹. Cho'lpon Buxoroda o'n oltita she'r yozib qoldirgan bo'lib, bulardan quyidagi 6 tasi: "Og'dorilish", "Xalq", "Tarixdan", "Kuz" "Yurt yo'li", "O'liklarga qarshi" kabilar "Cho'lpon", "Qalandar", "Abdulhamid Sulaymon o'g'li" taxalluslari ostida "Buxoro axbori" gazetasida chop etilgan⁶². Buxoroda yozilgan quyidagi she'rlari: "Kleopatra", "Men qochmadim", "Kulmak istading", "Yotoqdan", "Qizorish", "Og'riganda", "Qish kechalari", "Erkinlik istagi", "Uch-to'rt yulduz", "Balandlikda"⁶³ keyinchalik turli to'plam va matbuot sahifalarida chop etilgan.

XX asr 20-yillar shoirlaridan yana biri Payrav Sulaymoniy (1899–1933) she'riyati she'rlari g'azal, qasida, mustahzod va qit'a kabi an'anaviy janrlarda bo'lib, "Ba munosabati inqilobi Buxoro", sentabr) inqilobga bag'ishlangan she'ri bilan bir qatorda, "Bok nest", "To kay", "Shabi hijron bo xayoli jonon", "Chi shud, ki?..", "Firoqnoma", "Intixobi mashuq", "Tazmin g'azali Rudakiy", "Kay guftaamat"⁶⁴ kabi she'rlarida muhabbat tuyg'usini tabiiy va samimiy tarzda ifoda etgan.

Sulton Jo'rayev – Buxoro adabiy muhiti vakili, o'zbek adabiyotining yorqin yulduzi. Ilk she'ri 1928-yil "Mehnat qo'ynida" nomli bilan "Yangi yo'l" jurnalida bosiladi. She'riyat va nasrga qiziqgan shoir "Yulduz" taxallusi bilan matbuotda qatnasha boshlagan. O'z ovozigacha, uslubiga ega shoirning birinchi she'rlari "Buxoro proletari" gazetasida bosilgan edi⁶⁵.

⁵⁹ Айний С. Ашъори Мунтахаби. – Сталинобод: Тожикистон давлат нашриёти, 1958. –Б. 65.

⁶⁰ Айний С. Ашъори Мунтахаби. – Сталинобод: Тожикистон давлат нашриёти, 1958. 169 б.

⁶¹ Сафаров О, Сафарова Х. Чўлпон Бухорода. – Т.: Мухаррир, 2012. –Б. 85.

⁶² Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар). –Т.: Abu matbuot-konsalt, 2012. – Б.31.; Чўлпон. Юрт йўли (Адабиёт). // Вухоро ахбори. 58-сон. 1921-йил 8-декабр; "Ўликларга қарши" // Вухоро ахбори. 167-сон. 1923-йил 7-май.

⁶³ Ўзбекистон миллий архиви, 2356-фонд, 2-ро'ухат, 303-ish, 3-31-variantlar; 304-ish, 15-variant; Ахматов А. Шеърятда БХСРдаги тарихий жараёнлар, маданий қадриятлар таҳлили / Шарқ алломалари ёзма меросининг илмий, фалсафий, маънавий тафаккурдаги ўрни" мавзусида Республика илмий-амалий анжумани, Т., 2020 23-октабр. – Б.391-394.

⁶⁴ Айний С. Намунаи адабиёти тожик.– Душанбе: Адиб, 2010. –Б. 165.

⁶⁵ О'zbekiston milliy arxiv, R-2356-фонд, 2-ро'ухат, 360-ish, 54-variant.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo‘limi birgina 1935-yilda yuzdan ortiq yosh havaskorlarga adabiy maslahatlar bergan⁶⁶. Maktublarni o‘qish jarayonidan ma‘lum bo‘ladiki, ularning ko‘plari maktab o‘quvchilari bo‘lishgan. Shuning uchun she‘r deb yozilgan mashqlarning ko‘pchilik mualliflari adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi bilan tanishmaganliklari, o‘zbek tili qoidalari va til uslublarini ham mukammal o‘rganmaganliklari ma‘lum bo‘ladi.

Keyingi davrda Toshpo‘lat Hamidov adabiy sahnaga chiqishi bilan muhit o‘z yetakchisiga ega bo‘ldi. “Zarafshon vohasining xushxon bulbuli” degan qutlug‘ e‘tirofga sazovor bo‘lgan shoir⁶⁷ Buxoro va Qashqadaryo vohasi ijodkorlarini atrofiga jamlab, adabiy muhitni shakllantira olgan edi. Adabiy jarayonlarga “Qora sochim”, “Sovchi yigit”⁶⁸ she‘rlari bilan kirib kelgan adib ko‘plab kitoblar muallifiga aylandi.

Yozuvchilar uyushmasi 1957-yilda Buxoro adabiy muhiti tarixida sovet davrida yaratilgan viloyat ijodkorlarining asarlari jamlangan ilk to‘plamlar “Buxoro kuylaydi (badiiy havaskorlik to‘garaklari uchun repertuarlar to‘plami)”, “Oktabrga guldasta” ilk she‘rlar to‘plamlari nashr etilgan⁶⁹.

Yana bir buxorolik adib Murod Xalilning “Go‘zallik degani...”, “Noyob bezaklar ...”, “Quyosh chiqishi”, “Tog‘ boshida soldat haykali” she‘rlari estetik ta‘siri jihatidan ajralib turadi.

She‘riyatning mavzu doirasida “paxta ishi” siyosiy darajada bo‘lib, albatta, yig‘im yakunlariga bag‘ishlab she‘rlar bitilgan. Jumladan, “Zafarnoma” madhiyasi Buxoro adabiy muhitining yetakchi vakillari Toshpo‘lat Hamid, Murod Xalil, Normurod Tursunov, Ahmadjon Niyozmurodovlar hamkorligida yozilgan:

Musaffo tong ichra balqib ko‘rinding,
Shu bayram ayyomi, Buxorom.
Efir to‘lqinida qalqib ko‘rinding
Shu bayram ayyomi, Buxorom.

Shunday mazmundagi misralarni Tillo Mustafoyev, Isomiddin Jumayev, Qurbon Ochilov, R.Botirov, M.Mahmudov, T.Hayitov, Boboqul Hoshimiy va Fayzulla Dadaxonov, Shukur Abdulazizov, R.Jalilov, M.Burhonov, A.Paltilovlarning she‘rlarida ham uchratish mumkin.

Buxorolik havaskorlar, odatda, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom kabi ijodkorlar she‘riyatiga havas bilan qarab, buni o‘z ijodlarida singdirishga uringanlar. Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida adabiy jarayonlarda ijodkorlarning zabardast avlodi S.Vohidov, S.Salimov, S.Shodiyev, B.Bobomurodov, G‘.Qurbonov, B.Rajabov, J.Ismoilov, A.Rahmon, A.Hamroyev, I.Rajabova, L.Sharipova, N.Afoqova, O.Abdullayev, B.Usmonov, I.Subhoniy, H.Zulfiqorov, Sh.Sulaymonovlar she‘riyat sohasida qalam tebratganlar. D.Jabborov, A.Gulov, V.Bobomurodovlarning bolalar adabiyotidagi, H.Eshonqulov, N.Bekova, Sh.Axmedova, M.Rajabova, D.Quvvatova va

⁶⁶ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 2-ro‘yxat, 360-ish, 14-varaq.

⁶⁷ Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. –Бухоро: Дурдона, 2015. –Б. 317.

⁶⁸ Buxoro viloyat davlat arxivi, 1198-fond, 1-ro‘yxat, 38-ish, 9-varaq.

⁶⁹ Buxoro viloyat davlat arxivi, 1198-fond, 1-ro‘yxat, 7-ish.

D.Rajabovlarning adabiyotshunoslik sohasidagi izlanishlarini alohida qayd etish lozim. Mustaqillik yillarida she'riyat yangicha mavzu va mazmun bilan boyidi.

“Adabiy muhitda nasrning o‘rni” deb nomlangan ikkinchi faslida Buxoro zamonaviy adabiy muhitida nazmdagi asarlar ustun bo‘lsa-da, nasr ham keng quloq yoya boshlagani haqida fikr yuritilgan. Jumladan, Afzal Pirmastiy she‘rlari saroy muhitida maqtovg‘a ega bo‘lgan bo‘lsa-da, aslida, adib she‘riyatdan ko‘ra nasrda qobiliyatliroq bo‘lgan. Tazkiraning ham sharhlarini nasriy usulda yozgan. Bu asarni XX asr dastlabki yillari adabiy muhitini o‘rganuvchi adabiyotshunoslar safiga kiritishimiz mumkin.

Buxoro adabiy muhitining yana bir zabardast vakili Abdurauf Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti”, “Sayha” asarlari nashr qilib tarqatilgan⁷⁰. Buxoroga yashirin yo‘llar bilan olib kelingan bu asarlar, “Yosh buxoroliklar” dunyoqarashining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Sadriddin Ayniy dastlabki ijodiy faoliyatini nazmda boshlagan bo‘lsa-da, o‘zining betakror, sodda va xalqona asarlarini nasrda yozdi. Uning Buxoro va buxoroliklar hayoti tasvirlangan “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”, “Buxoro mang‘it amirlari tarixi”, “Tojik adabiyotidan namunalar”, “Buxoro jallodlari”, “Doxunda”, “Qullar”, “Sudxo‘rning o‘limi”, “Eski maktab”, “Odina”, “Yetim”, “Esdaliklar” kabi asarlari jahon adabiyoti merosidan munosib o‘rin egallagan.

Mohir tarjimon, publitsist, shoir, yozuvchi Rustam Abdurahmonov Pamflet, ocherk, qissa, poeziyaning turli janrlari, targ‘ibot maqolalarida vatanparvarlikni targ‘ib qiladi. Jumladan, “Razvedka” (“Qizil O‘zbekiston”, 1943.15.8) ocherkida razvedkachi askar jasoratini yoritgan. “Olg‘a bos”, “Farhodchilarga” asarlarida jangchilarni qasosga undab, askarlarga madad berayotgan yurtdoshlarini olqishlaydi⁷¹. R.Abdurahmonov keyingi davrda asosan nasrda ijod qildi.

XX asrning 20-yillarida hikoyalar yoza boshlagan Jalol Ikromiyning ijodiy yuksalishida Sadriddin Ayniyning xizmatlari katta bo‘lgan. Buxoro adabiy muhitida tarbiyalangan adibning 1927-yilda yozilgan “Buxoro registonida tun” asari aynan S.Ayniy maslahatlari asosida yaratilgan. Dastlab bir qator she‘r va hikoyalar yozgan adib keyingi faoliyatini nasr bilan bog‘laydi⁷².

Nosir Yakov Gordon Buxoro tarixidagi ilk roman bo‘lishi mumkin bo‘lgan “Благородная Бухара” asari ustida ish olib borgan. Afsuski, ushbu romanning keyingi qismati noma’lum. Yosh ijodkorlar V.Turov, A.Niyozmurodov, T.Novichkov, J.To‘rayev, M.Baqoyev, G‘.Navro‘zov kolxoz, qishloq hayoti mavzularida ocherklar yozganlar⁷³.

Jurnalist, publitsist shoir Murod Xalil mehnat ahlini kuylashda o‘ziga xos yo‘l tutgan. Adibning bizgacha “Ergash olov”, “Sog‘inib keldim”, “Zarchashma”, “Davr qo‘shig‘i”, “Tillaxon” singari kitoblari va “Muhabbat yolqini” qissasi

⁷⁰ Ражабов Қ. Тарбия атфол // Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 8 жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2004. – Б. 271.

⁷¹ Buxoro viloyat davlat arxivi, 1079-Fond, 1-ro‘yxat, 9-ish, 20-22-varaqlar.

⁷² Prominent tajik figures of the twentieth century / by Dr.Iraj Bashiri professor the University of Minnesota. – Dushanbe: Tajikistan, 2002. – B.113.

⁷³ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 405-ish, 84-varaq.

(1972-yil, Barot Boyqobilov bilan hamkorlikda) nashr etilgan. Buxoro adabiy muhiti tarixidagi ilk roman muallifi ham Murod Xalil edi. “Zarafshon” nomli roman turli sabablarga ko‘ra ancha vaqtlar nashrini kutib, istiqloq sharofati bilan, ya’ni oradan qirq yil o‘tib, omma hukmiga havola etildi⁷⁴.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab zamonaviy yondashuvlar birinchi navbatda nasrda yuzaga keldi. Buning izlarini Ahad Hasan asarlarida kuzatamiz. Uning hikoya va qissalari o‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning 1962-yilda “Chiroqlar” nomli ilk hikoyalar to‘plami bosib chiqariladi. Shundan keyin adibning ko‘plab hikoya, qissa va romanlari nashr etiladi.

Buxoro adabiy muhiti vakili Ne‘mat Aminovning dastlabki yillarda yozgan ijod namunalari quyidagilar: “Xo‘p deng endi shimni yechay” (hikoya), “Nurnoma xat”, “Sartaroshning sevgisi”, “Shifokor targ‘ibotchi”, “Tarbiya”, “Tashkilotchi”, “Boshsiz eshak” (hikoya), “Bir duoga o‘n qarg‘ish”, “O‘rdak tuxumi”, “Jigarlar”, “Ota” hikoyalari yozilgan. Shuningdek, “Jonim direktur”, “Oyinning ro‘moli”, “Nusratchaman”, “Ustoz” hikoya, “To‘yda”, “Isitma”, “Kanalchilar” (Hamqishloqlar), “Bolajonning baxti”, “Apollon” (talabalar hayotidan), “Avlodlar”, “Ekspeditor”, “Ikki Buxoro”⁷⁵ nomli asarlari Buxoroda yozilgan.

Buxoro adabiy muhitining keyingi avlod vakillari sifatida Ne‘mat Aminov, Jamol Kamol, Safar Barnoyev, Muhammad Salom, Omon Muxtor kabi el suygan ijodkorlar poytaxtda istiqomat qilib turib Buxoroni kuyladilar. Ularning Buxoroga tashriflari, viloyatdagi adabiy muhitga qo‘shgan hissalar katta bo‘lgan.

Bolalar adabiyotining vakillaridan biri Dilmurod Jabborning “Bizning olam”, “Qo‘rqoq trolleybus” to‘plamlari nashr etiladi. U “Bolalar adabiyoti kengashi” va Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limi tavsiyasi bilan 1992-yil 22-yanvarda bolalar adabiyoti vakili sifatida uyushmaga a‘zo qilingan⁷⁶.

XX asrga qadar Buxoroda asosan, she‘riyat va uning janrlariga e‘tibor qaratilgan. XX asrga kelib G‘arb adabiyoti ta‘sirida adabiy tur va janrlarda ham o‘zgarishlar yuzaga keldi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari M.Tursunov, G‘.Shomurodov, J.Fozilov, J.Ismoilov, A.Hamroyevlar⁷⁷ o‘zbek nasrining eng sara namunalari kitobxonlarga taqdim qilganlar. Buxoroda ham nasriy asarlar yozishning o‘ziga xos tajribasi shakllandi.

Uchinchi bobning “Dramaturgiya taraqqiyoti” deb nomlangan uchinchi faslida XX asrda Buxoroda dramaturgiya ma‘lum yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, nasr va she‘riyat darajasiga chiqqan olmagan haqida batafsil yozilgan. Dramaturgiyada ham muhim o‘zgarishlar ro‘y berib, u ham zamon bilan bog‘liq holda rivojlandi. Uning ham mavzusi sinfiy yondashuv, sovet mafkurasiga tayanilgan holdagi sotsialistik realizm doirasida bo‘ldi. Tarixda ham sahna asarlari bo‘lsa-da, ular faqat saroy ahli bazmlarini ko‘rkamlashtirish uchun ijro etilgan. Bizda alohida dramaturglar bo‘lmagan. G‘arb madaniyatining kirib kelishi bilan adabiyotimizda ham yangicha adabiy janrlar paydo bo‘ldi. Fitrat, Hamza, Cho‘lponlar o‘zlari pyesalar yozib, ba’zida aktyorlar yetishmasligi bois ijroni ham

⁷⁴ Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Дурдона, 2015. – Б.377.

⁷⁵ Buxoro viloyat davlat arxivi, 1233-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 13-127-varaqlar.

⁷⁶ O‘zbekiston milliy arxivi, M-123-fond, 1-ro‘yxat, 1^a-yig‘ma jild, 21, 26-varaqlar.

⁷⁷ O‘zbekiston milliy arxivi, M-123fond, 1-ro‘yxat, 5^a-yig‘ma jild.

o‘zlari amalga oshirishgan. Aynan ular teatr orqali xalqni uyg‘otishga urindilar va qisman bunga erishdilar ham. Shu bois ularni Buxoro adabiy muhiti tarixida dramaturgiyaning asoschilari deyishga asoslar bor.

Fitrat teatrga tarbiya minbari sifatida qarab, 1914–1915-yillari Buxoroda havaskorlik ishlarini yo‘lga qo‘yishda qatnashadi. M.Uyg‘ur bilan hamkorlikda 1919-1924-yillarda “Temur sag‘anasi”, “Chin sevis”, “Hind ixtilolchilari”, “Abo Muslim” pyesalarini yaratadi. 1924-yili uning “Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyoni”, 1926-yili “Arslon” sahna asarlari nashr etiladi. 1921-yil Buxoroda ochilgan musiqa maktabining tashkilotchisi va birinchi mudiri Fitrat⁷⁸ millat rivojida san‘atning rolini to‘g‘ri anglab, Buxoroda teatr tashkil qilish ishlarida tashabbus ko‘rsatgan.

O‘zbekiston tarixidagi birinchi professional teatrlardan biri aynan Buxoroda Fayzulla Xo‘jayev tashabbusi bilan tashkil qilingan. Ushbu teatrning shakllanishida Abdurauf Fitratning mehnati ko‘p singgan. Abdulhamid Cho‘lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mannon Uyg‘urlar shu masalada bir necha marta Buxoroga tashrif buyurganlari ma‘lum⁷⁹.

Keyinchalik Yozuvchilar uyushmasi tashkil qilingan dastlabki yilda ikkita teatr bilan adabiy aloqalar o‘rnatilib, ularga maslahat va ayni paytda materiallar berilgan. Viloyat teatr truppsi va Yozuvchilar uyushmasi hamkorlikda staxonovchilarga bag‘ishlab “Porloq sex” pyesasi tayyorlanib sahnaga qo‘yiladi. Yahudiy millati vakillariga teatriga “Amirning zulmi”, “Din azoblari” nomli ikkita pyesa qayta ishlanib, musiqali sahna ko‘rinishida namoyish qilingan⁸⁰. 1945-yil B.X.Olimov tomonidan “Buxoro revolyutsiyasi” nomli 4 pardali 5 ko‘rinishli musiqali spektakl yoziladi⁸¹.

Buxoro adabiy muhitining yana bir zabardast vakili Maksim Karimov “O‘n sakkiz yoshligim” nomli birinchi sahna asari dramaturgiyaga yangi g‘oya, yangi intilishlar olib kirgan. Shu yili Yo‘ldosh Oxunboboyev nomidagi Respublika Yosh tomoshabinlar (rejissor E.Masafayev) va Muqimiy nomli musiqali teatrida (S.Jalil musiqasi, rejissor R.Hamroyevlar) “Qalam qoshligim” nomi bilan sahnaga qo‘yilgan. Shundan so‘ng uning “Diydor”, “Insonlikka nomzod”, “Jang” pyesalari nashr etiladi.

1976-yil 1-mart holatiga ko‘ra jami 7833 nafar yozuvchi bo‘lib, ular 76 tilda ijod qilishgan. Ulardan faqat 425 nafari dramaturgiya va kinoyozuvchilik bilan shug‘ullangan⁸². XX asr o‘zbek dramaturgiyasi holatini bilishda S.Aliyevning “Adabiy aloqalar va o‘zbek dramaturgiyasi” nomli monografiyasi ahamiyatli⁸³.

Ko‘rik tanlovlarda ishtirok qilish, musiqali drama teatrini sahnaga qo‘yish uchun mahalliy ijodkorlardan S.Rahmonovning “Yulduz”, A.Mo‘minovning

⁷⁸ Buxoro axbori. 30-son 1921-yil 5-aprel.

⁷⁹ Axmatov A. Buxoro adabiy muhitiда Хамза фаолиятига оид айрим мулоҳазалар. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. № Маҳсус сон (76), 2021. – Б.113-115.

⁸⁰ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 786-ish, 18-varaq.

⁸¹ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 717-ish, 274-276, 319-varaqlar.

⁸² <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/105/012.htm>.

⁸³ Aliyev S. Abu Ali ibn Sino (tarixiy-biografik roman). Mas‘ul muharrir va nashrga tayyorlovchi Sh.Axmedova. – Buxoro: Muhammad Poligraf, 2023. – B.5.

“Yetuklik attestati” kabi dramasi tayyorlashga kirishganlar. G‘ijduvon tumani teatri A.Mirzaahmedovning “Cho‘pon qiz” musiqali dramasi tayyorlagan⁸⁴.

Mustaqillik yillarida A.Fitrat, M.Karim, T.Hamidov ishlarini S.Aliyev, T.Ahmedov, M.Tursunov, B.Rajabov, U.Sattorov, I.Hasanov, Sh.Nurmatov, M.Nazarova singari adiblar davom ettirib sahna uchun asarlar yozdilar. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Mohigul Nazarova bugungi kunda “Sevimli” va “Milliy” telekanallarining “Taqdirlar” va “Iqror” ko‘rsatuvlariga telenovellalar yozib bermoqda. Ijodkor ayni paytda Buxoro viloyat musiqali drama teatrida adabiy bo‘lim mudirasi bo‘lib ishlaydi. Bu esa Buxoroda dramaturgiya yaxshi yo‘lga qo‘yilayotganini bildiradi.

Adabiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari deb nomlangan to‘rtinchi bobning birinchi faslida “Adabiy muhitning etnik tarkibi, ijtimoiy va til xususiyatlari” haqida fikr yuritiladi. Sharifjon Maxdum Sadr Ziyoning davr adabiy muhiti haqida yozar ekan, adiblarning iqtisodiy holatidan kuyinadi, jumladan, Mirzo Somiy haqida: “O‘zini xatarga qo‘yib ariza va shikoyatlar qilgani uchun qoralanib, mansabidan tushirilgan, daromadlaridan ayrilgan, umrining oxirini iqtisodiy nochorlikda o‘tkazgan”⁸⁵, – degan ma’lumotni keltiradi.

Buxoro zamonaviy adabiy muhitining shakllanishiga hissa qo‘shgan adiblar Mirzo Muhsin Akkosning 1917-yil yozilgan “Navro‘z bishud imro‘z” mustahzodi, Mirbobo Muhsinzodaning “Guli surx” qissasi ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, Navro‘zni kutib olishdagi xalqning holati, tabaqalar orasidagi tafovut, xalq hayotining holati, taraqqiyparvarlarning ma’rifat va demokratiya uchun kurashlari dard bilan qalamga olinadi⁸⁶.

1937–1938-yillar qatag‘oni O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi uchun og‘ir kechdi. Millatchi deyilgan adiblarning taqdiri Yozuvchilar uyushmasining plenumlarida ko‘rilgan. 1937-yil 17-iyulda uyushma plenumida ko‘plab adiblarning taqdiri muhokama qilinib “ijodi bilan adabiy harakatchilikda zararkunandalik qilib keldi” degan ayblov bilan soyuzdan chiqarilgan⁸⁷. Bu yillarda uyushma rahbariyatidan ham, hukumat vakillaridan ham hech bir arbob biror adibni himoya qilib chiqmagan. Odatda, uyushma siyosiy organlar bergan topshiriqlar bo‘yicha ish ko‘rib, ko‘pincha o‘z safdoshi bo‘lgan ijodkorlarni aybdor sanab, safdan chiqartirib yuborgan. Ularga dushman sifatida qarab, eng yaqin do‘stlarini tuhmatlarga muhtalo qilganlar. Hatto, Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo‘limi dastlabki boshqaruvchisi Vasfiy ham qatag‘on azobini boshdan kechirdi⁸⁸.

1938-yildagi arxiv hujjatlari o‘rganilganda adiblarning ijtimoiy ahvoli og‘irligi ma’lum bo‘ladi. Ayrim ijodkorlar bosmaxonada ishlab, uning kichik bir xonasida butun oilasi bilan yashaganlar. Uy-joy berilishini so‘rab qilingan murojaatlar javobsiz qolgan⁸⁹. Nashriyot va tipografiyalarda ishlayotganlar ham

⁸⁴ Buxoro viloyat davlat arxivi, 1198-fond, 1-ro‘yxat, 7-ish, 127-varaq.

⁸⁵ Садр Зиё. Навоиди зиёя. – Т.: Баёз, 2017. – Б.105.

⁸⁶ Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро.: Дурдона, 2015. – Б. 233.; Алиев С. Бухорода битилган байтлар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б.50

⁸⁷ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 24, 28-ishlar.

⁸⁸ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 786-ish, 3-4-varaqlar.

⁸⁹ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 24, 28-ishlar.

ishdan ayriladi, yozgan asarlari nashr qilinmaydi. Ularga va oilasiga “zararli odam” deb munosabat bildiriladi⁹⁰.

Matbuotda bosiladigan tanqidiy materiallar, felyeton, hajviyalarning mualliflari el tanigan yozuvchi, shoirlar bo‘lib, ular davr taqozosi tufayli o‘z haqiqiy ism-shariflarini pinhon tutganlar. Yozuvchi, jurnalist, shoirlarga nisbatan qarshilikning kuchayishi ayrim hollarda esa bu qarama-qarshilikning fojia bilan yakunlanishi ularning taxallus – yashirin nom bilan matbuotga chiqishlarini taqozo qilar edi.

Buxoro adabiy muhiti til xususiyatining xarakterli jihati hamon zullisonaynlik an‘anasini saqlab kelayotganligida edi. Arab, turk, fors tilida ijod qilish bu davrda bir qadar qisqarib rus tili asosiy o‘ringa chiqib sara asarlar yaratila boshlandi. Timur Po‘latov singari ijodkorlar to‘liq shu tilda ijod qilgan.

Buxorolik ayrim qalam sohiblari asosiy til sifatida tojik lisonida ijod qilganlar. Bunga esa Sharifjon Maxdum, Payrav Sulaymoniy, Jalol Ikromiy, Asad Gulzoda kabi shoir va adiblarni badiiy ijodi dalil bo‘ladi. Fors-tojik, ozar va o‘zbek tillarida ijod qiladigan Ibrohim Qosimiyning ijodi nafaqat Buxoro va Eronda, shuningdek, dunyoning turli nuqtalarida istiqomat qiluvchi buxoro yahudiylari orasida ham mashhurlikka erishgan.

Adabiy muhit vakillari orasida dehqon, ishchi, hunarmand, mayda savdogar, sarrof, yirik tadbirkor, mudarris, talaba, qozi, mirshab, bog‘bon, naqqosh, tahririyat xodimi, jurnalistni ham uchratish mumkin. O‘tgan asrning dastlabki choragida mudarris va madrasa toliblari ko‘pchilikni tashkil qilgan. Keyingi yillarda ularning kasbiy tarkibi ancha kengaydi.

Yozuvchilar uyushmasi tarkibida 31 nafar a‘zo milliy adabiyot vakillari sifatida kiritilgan bo‘lib, ularning tarkibida tojik, qozoq, uyg‘ur, qrim-tatar vakillari ko‘pchilikni tashkil qilgan. Buxoro yahudiylarining alohida adabiyot kengashlari mavjud bo‘lib, uni o‘tkazish uchun uyushmadan ruxsat olgan va har oyda bir marta (yakshanba kuni) kichik majlislar zalida yig‘ilganlar⁹¹. Yahudiy vakillarining alohida matbuot organi ham bo‘lgan. “Teatr”, “Sovet ona yurti” (ibroniy tilida nashr etilgan) kabi nashrlar SSSR yozuvchilar uyushmasining yahudiylar tilida chiqadigan nashrlari bo‘lib, ularda buxorolik ijodkorlarning ham ishlari bosilgan.

Etnik tarkibi xilma-xil bo‘lgan zamonaviy adabiy muhit vakili Xayim Yusupovich Kaykov⁹² she‘rlari, kichik poemalari, ocherklari respublika miqyosida chiqadigan “Adabiyot soveti” jurnalida, “Bayroqi mehnat” gazetasi sahifalarida nashr qilinadi. Uning she‘rlari va hikoyalari mavzusi xilma-xil bo‘lib, unda sovet davrini ulug‘lash, partiyani kuylash, vatan, mehnatsevarlik, hunarni hamda ilmni egallash va boshqa shu singlarilar qamrab olingan. Shoir “Ba rabochiy duxtar” (“Ishchi qizga”), “SSSR”, “Zulmi xalfa”, “Yo‘noyi yatimcha” singari kichik poemalar ham yaratgan.

⁹⁰ O‘zbekiston milliy arxivi, R-837-fond, 32-ro‘yxat, 1350-ish, 20-23-varaq.

⁹¹ O‘zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro‘yxat, 1522-yig‘ma jild, 32-varaq.

⁹² Xayim Yusupovich Kaykov 1913-yilda Samarqand shahrida bo‘yoqchi yahudiy oilasida dunyoga kelgan. Ota-onasidan erta ayrilgan adib, dastlab kambag‘al bobosi qaramog‘ida, keyinchalik bolalar uyida tarbiyalanadi. Shoir Xayuk (Xa-Xayim, Yu-Yusupovich, K-Kaykov) ilk ijodi 1932-yildan “Oktabr” gazetasida bosilgan.

Buxoro yahudiylari yozuvchilar shu'basining raisi, adib Aron Yefremovich Shalomayevning pyesalarida, jumladan, "Oqibat", "Iztirob"da yosh avlodning qarashlari, "Qon sachragan chinor"da qayta qurish, "Nadomat"da SSSRni tark etib Isroilga kelgan yahudiy ayolining taqdiri, "Buxoro fojiasi"da Ibn Sinoning hayoti mavzusi aks ettirilgan.

Rus tilida qalam tebratgan shoir Timofey Dmitriyevich Novichkov⁹³ 1925-yil 1-iyulda Penza viloyatidagi Staraya Studenovka qishlog'ida tug'ilgan. Uning birinchi she'riy to'plami "O'rmon yarmarkasi" («Лесная ярмарка») deb nomlanadi. She'riyat borasida unga o'zbek shoirlari Jamol Kamol, Toshpo'lat Hamidlarning yordami katta bo'lgan. 1979-yilda "Quyosh svetofori" ("Солнечный светофор") kitobi nashr etilgan. 1982-yilda Timofey Dmitriyevich Novichkov O'zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilingan⁹⁴. 1984-yilda Butunittifoqda boshlangan siyosiy o'zgarishlardan so'ng shoir uzoq yillik muhojirlikdan so'ng Krasnoyarsk o'lkasining Zelenogorsk shahriga qaytadi.

"Buxoro adabiy muhitida ayol ijodkorlar o'rni" deb nomlanga ikkinchi faslida ayol ijodkorlar haqida ma'lumot berilgan. Ayol ijodkorlar ko'lami XX asrning boshida u qadar yuqori bo'lmagan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida madaniy, siyosiy jarayonlarga jalb qilingan xotin-qizlar faol harakatda bo'lib, "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari kuzatilganda Abu Oysha, Rafiqa, Turkman qiz, O'zbek qiz kabi ayol muxbirlar nomlarini uchratish mumkin.

Ijodiy faoliyatini "Buxoro proletari" tahririyatida boshlagan Ra'no Uzoqova (1916-1947) she'rlari dastlab shu gazeta sahifalarida chop etilgan. Shoir 1938–1940-yillarda "Buxoro haqiqati"da jamiyat yangiliklarini qo'llab-quvvatlab har jabhada xotin-qizlar ilg'orligini yozadi.

O'zbek va tojik tilida ijod qilgan ikki buxorolik shoir Gulchehra Sulaymonova va Toshkentda yashab ijod qilayotgan Gulchehra Jo'rayeva 1984-yil sentabr oyida Buxoroga tashriflari chog'ida turli tashkilotlarda mushoiralar, adabiy kechalarda ishtirok etadi⁹⁵. Gulchehra Jo'rayevaning "Buxoro qizlari", "Muqaddas maskan" she'rlari 1985-yil Buxoroga tashrifi chog'ida yozilgan⁹⁶.

O'zbekiston xalq shoirasi "Shabnam", "Manzillar", "Men sevgan qo'shiq", "Orzu guli", "Tarovat", "Dostonlar", "Xushxabar" singari o'ndan oshiq kitoblar muallifi Oydin Hojiyeva ham asli Buxoro tuprog'ida tug'ulib o'sgan bo'lsa ham, taqdir hukmi bilan poytaxt Toshkentga o'qishga ketib, poytaxt adabiy muhiti vakilasiga aylanganlardan biridir.

Adabiy jarayonlarga faol kirishgan ayol ijodkorlar M.G'afforovanning "Najot maktubi", M.Mavlonovanning "Gul keltirdi", Sh.Berdiyevanning "Biz ayolmiz",

⁹³ Rus tilida qalam tebratgan buxorolik shoirlardan biri, etnik kelib chiqishi slavyan bo'lgan shoir, nosir, rassom, haykaltarosh Timofey Dmitriyevich Novichkovning oilasi 1935-yilda qatag'on zug'umidan qutilmoqchi bo'lib Buxoro viloyatiga kelishadi. 1943-yilda frontga jo'natilgan T.Novichkov Ukraina va Polshadan o'tib, deyarli Berlingacha yetib boradi. Shu bois T.Novichkov she'rlari orasida urush yillari mavzusi alohida o'rin tutadi. 1966-yildan boshlab bolalar uchun she'r, hikoya, ertaklar yozib matbuotda e'lon qilgan. U davriy nashrlarda va to'plamlarda "Ласточка", "Вкусное лето", "Жарки", "Лесная песня", "С душой наедине", "Антология поэзии закрытых городов" kabi she'rlarini "Лесная ярмарка", "Солнечный светофор", "Речные камешки", "Почему береза белая?" kitoblarni nashr ettirgan.

⁹⁴ O'zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro'yhat, 1524-yig'ma jild, 32-varaq.

⁹⁵ Buxoro haqiqati, 1984-yil 15-sentabr, 178-son.

⁹⁶ Жўраева Г. Сени севаман, ҳаёт: Сайланма. –Тошкент: Шарк, 2009. – 272 б.

G.Sanoyevaning “Chorlash” kabi she’rlarini ham alohida ta’kidlash mumkin. Shuningdek, F.Hakimova, G.Norqulovalarning to’rtliklari ham ancha mazmundor bo’lib, adabiyot mezonlariga mos tushadi. Shu qatorda O.Tosheva “Qatim tortar qizgina”, V.Muqimova “Muhabbatdan”, Sh.Azizova “2”larni tuzatdim” she’rlarini, S.Sharipova qator to’rtliklar yozgan. M.Mavlonova “Vatan sevgisi”, Sh.Berdiyeva “Derazamdan tushgan nur”, “Dunyoni qo’shiq tutsin”, “Tilagimsan”⁹⁷ she’rlari bilan Buxoro adabiy muhiti tarixida ma’lum darajada iz qoldirgan.

“Bolalikni eslamog uchun uni qallda saqlamoq kerak”, deya adabiyot maydoniga kirib kelgan shoira Laylo Sharipovaning ilk she’rlari “Shofirkon haqiqati” gazetasida bosilgan⁹⁸. Shundan keyin birin-ketinlik bilan ko’plab she’rlari matbuotda bosila boshladi. Ilk sheri to’plami “Oq armonlar” 1993-yilda nashr etilgan. Shoira ijodini o’rganish XX asr 90-yillaridayoq boshlangan⁹⁹. Shoiraning “Qismat surati”, “Shodlik sohili”, “Bu shunday dunyoki”, “Onamga tortiq”, “Onam o’zing” singari adabiy, ilmiy kitoblari chop etilgan. Shoira 2016-yildan e’tiboran O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. Hukumatimiz tomonidan 2023-yilda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar a’lochisi”, “Ma’naviyat fidoyisi” ko’krak nishonlari bilan taqdirlangan. Shoiraning she’rlari samimiy ohang bilan yo’g’rilgan. Inson qalbidagi noaniq nuqtalarni ilg’ash, inson qalbidagi og’riqlarni teran ifoda eta bilish shoiraning ijodidagi shiori hisoblanadi.

Buxorolik shoira Ibodat Rajabova tarix bilimdoni. She’rlarining har satrida vatanga, yurt tarixiga muhabbati ufurub turadi. Turli yillarda uning “Osmondagi farishta”, “Qush kiprigi”, “Buxornur yoki yetti pir”, “Buxoroda gujum gulladi”, “Qush kiprigi”, “Varazrud gulobi” va boshqa she’riy to’plamlari nashr etilgan. Shuningdek, uning she’rlarida tarix takror va takror eslanadi. “Buxoro ko’chalari”, “Varaxsha”, “Eski qal’a manzaralari”, “Rudakiyni sog’inib”, “Afrosiyob so’zi”, “Narshaxiy tug’ilgan qal’ada”, “Cho’li iroq”, “Kumushkent”, “Vardonze qal’asi haqida kichik bir doston”, “Chorminor”, “Chorbakr boraman” singari she’rlari Buxoro tarixidan hikoya qiladi.

Buxoro zamonaviy adabiy muhitida bugungi kunda Ibodat Rajabova, Laylo Sharipova, Nodira Afoqova, Mohigul Nazarova, Go’zal Ro’ziyevalar samarali ijod qilib kelmoqdalar.

“Adabiy aloqalar va tashriflar” deb nomlangan uchinchi faslida adabiy hamkorliklar haqida tadqiqot xulosalari berilgan. Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo’limi qayta tashkil qilingach, Buxoro adabiy muhitining ittifoqdosh respublika adiblari bilan aloqalari ham samarali yo’lga qo’yiladi. Jumladan, 1955-yil dekabr oyidan boshlab viloyat bo’limi Ukraina SSR Yozuvchilar uyushmasining Simferopol shahri Gorkiy ko’chasi 7-uyda joylashgan Qrim bo’limi bilan hamkorlikni muntazam ravishda yo’lga qo’yilgan. Mazkur bo’lim bilan doimiy yozishmalar olib borilib, o’zaro tajriba almashish uchun kelishib olinadi¹⁰⁰.

⁹⁷ Buxoro haqiqati, 1985-yil 5-may 87-son; 1984-yil 8-mart, 43-son; 24-avgust, 163-son; 23-iyun 120-son.

⁹⁸ Шофиркон ҳақиқати 1984, 11 декабр.

⁹⁹ Очилов Э. Юрагимда гул очар оғрик. Бухоро ҳақиқати; Ражабова Р. Журъатнинг суврати. Бухоро ҳақиқати 1994, 25 ноябр 47 сон. Туробова Н. Гўзаллик ва камолотга интилиб. Бухоро ҳақиқати;

¹⁰⁰ O’zbekiston milliy arxivi, R-2356-fond, 1-ro’yxat, 405-ish, 83-varaq.

1962-yil xalqaro aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan voqea bo‘ladi, ya’ni Shvetsiya yozuvchilar tashkiloti raisi o‘rinbosari Yan Yelen va shved shoiri Karl Vannberglardan iborat yozuvchilar delagatsiyasi O‘zbekistonda bo‘ladi. Ular Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarining qadimiy yodgorliklarini, yangi madaniy o‘choqlarini tomosha qilish bilan birga, adabiy tajribalar almashadilar. O‘zbek, tojik, rus, shved tillarida ijod qiluvchilarning mahalliy vakillar bilan uchrashuvi adabiy muhit uchun katta yutuq edi¹⁰¹.

Sovet ittifoqining taniqli shoir va yozuvchilari Buxoroga tashrif buyurib, yoshlarga tajriba, xalqqa yuqori kayfiyat berish bilan birga, o‘zlari ham navbatdagi asarlari uchun materiallar yig‘ganlar. Dog‘istonlik atoqli shoir Rasul Hamzatov, jangnomalar muallifi, shoir Konstantin Simonov, respublika adiblaridan Hamid Olimjon, Muso Toshmuhammad o‘gli Oybek, G‘afur G‘ulom, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Jumaniyoz Jabborov, Barot Boyqobilov, tojik yozuvchisi Yusuf Akobirov va boshqalar Buxoroga tez-tez ijodiy yo‘llanma bilan kelganliklari manbalarda saqlanib qolgan¹⁰².

